12. Yaxshiyeva S. X. et al. ROSS-308 KROSSIGA MANSUB BROYLER JO ‘JALAR MUSKULLI OSHQOZONNING POSTNATAL ONTOGENEZI //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 24. – С. 926-930.

13. Кулиева Б. А., Акрамов К. Ш. Патоморфология пневмоний у ягнят каракульской породы. – 2021.

14. Мухторов Э. А. ДЕЙСТВИЕ УСЛОВИЯ СОДЕРЖАНИЯ НА МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ МУСКУЛАТУРЫ КОНЕЧНОСТИ ПОСТНАТАЛЬНОГО ОНТОГЕНЕЗА У ГИССАРСКОЙ ПОРОДЫ ОВЕЦ //СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК. – 2020. – С. 137-140.

15. Мухторов Э. А. ҲИСОРИ ЗОТЛИ ҚЎЙЛАР ОРҚА ОЁҚ МУСКУЛЛАРИНИНГ ПОСТНАТАЛ ОНТОГЕНЕЗДАГИ МОРФОМЕТРИК ХУСУСИЯТЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2019. – №. 4.

16. Мухторов Э. А., Дилмуродов Н. Б. ҲИСОРИ ЗОТЛИ ҚЎЙЛАР ПОСТНАТАЛ ОНТОГЕНЕЗИДА ОЁҚ МУСКУЛЛАРИНИНГ МОРФОЛОГИК ҚЎРСАТКИЧЛАРИГА ЯШАШ ШАРОИТИНИ ТАЪСИРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – Т. 2. – №. 2.

17. Мухторов Э., Дилмуродов Н. ҲИСОРИ ЗОТЛИ ҚЎЙЛАР ЕЛКАНИНГ СОННИГ ТЎРТ БОШЛИ МУСКУЛИ ТОЛАСИНИНГ ЯДРОСИ ДИАМЕТРИНИ ПОСТНАТАЛ ОНТОГЕНЕЗДА ЎЗГАРИШИ //International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development. – 2021. – С. 49-52.

18. Рахманова Г. Ш., Федотов Д. Н. ОСОБЕННОСТИ ГИСТОЛОГИЧЕСКОГО СТРОЕНИЯ ЯИЧНИКА У КУР-МОЛОДОК //НАУЧНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЖИВОТНОВОДСТВА СИБИРИ. – 2021. – С. 466-467.

19. Раҳмонов, Ў. А., Сапаров, А. Р., & Азимова, Д. М. (2022). КАТАРАЛ КЕРАТОКОНЪЮНКТИВИТЛАРНИ ДАВОЛАШДА НОАНЪАНАВИЙ УСУЛЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(6), 401-404.

20. Раҳмонов, Ў. А., Сапаров, А. Р., & Қахарова, М. К. (2022). ОТЛАРДА ЙИРИНГЛИ КОНЬЮНКТИВИТНИ ДАВОЛАШ. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(6), 405-408.
21. Раҳмонов, Ў., Сапаров, А., & Азимова, Д. (2022). КАТАРАЛ КЕРАТОКОНЬЮНКТИВИТЛАРНИ ДАВОЛАШДА НОАНЪАНАВИЙ УСУЛЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(6), 401–404.
22. Раҳмонов, Ў., Сапаров, А., & Қахарова, М. (2022). ОТЛАРДА ЙИРИНГЛИ КОНЬЮНКТИВИТНИ ДАВОЛАШ. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(6), 405–408.
23. Таштемиров Р. М. и др. ТЕРИ КАСАЛЛИКЛАРИНИ ДАВОЛАШДА ҚО‘ЛЛАНДИГАН О‘СИМЛИК ДОРИ ВОСИТАЛАРИНИНГ ТАВСИФИ (Adabiyot malumotlari asosida) //Вестник Ветеринарии и Животноводства. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
24. Таштемиров Р. М., Хайдарова С. А. ВОЗРАСТНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ МАССЫ МЫШЦ ТАЗОВОЙ КОНЕЧНОСТИ В ОНТОГЕНЕЗЕ У КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ ПРЕДГОРНОЙ ЗОНЫ УЗБЕКИСТАНА //СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК. – 2019. – С. 131-135.
25. Zafarovich D. S., Babakulovich D. N. Changes In Natural And Hygroscopic Moisture Content Of Broiler Chickens In Postnatal Ontogenesis //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. – 2021. – С. 15710-15713.
26. Abdig‘ulomovich M. E. et al. DYNAMICS OF TRIGLITSRIN IN BLOOD IN DIFFERENT CONDITIONS //E Conference Zone. – 2022. – С. 202-204.
27. Mirzoev Z. R., Rakhmonov R. A., Khudoynazarova N. E. Morphometric Properties Of The Shoulder Bone In The Postnatal Ontogenesis Of Rabbits In The Meat Direction //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. – 2021. – С. 15714-15717.
28. MUKHTAROV B. Z., DILMURODOV N. B. Some Biochemical Indicators of Blood in Prosperous Cows in Pure Pododermatitis //JournalNX. – Т. 6. – №. 06. – С. 58-62.
29. Niyozov H. B. ETIOLOGY, INCIDENCE RATE AND CLINICAL SYMPTOMS OF POSTRATERAL ENDOMETRITS OF PEDIGREE COWS //Financed by the Erasmus+ programme of the European Union The conclusions and view expressed herein are those of the authors and do not necessarily reflect an official view of the European Commission. – 2020.
30. Niyozov H. B. ЕТОПАТХОГЕНЕЗИС, INCIDENCE RATE AND CLINICAL SYMPTOMS OF PURULENT-NECROTIC PROCESSES OF CATTLE FINGERS //Financed by the Erasmus+ programme of the European Union The conclusions and

view expressed herein are those of the authors and do not necessarily reflect an official view of the European Commission. – 2020.

31. Normuradova Z. F. et al. QUYONLARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI //E Conference Zone. – 2022. – С. 44-47.

32. Normuradova, Z. F., & Arzikulova, S. M. (2022, May). QUYONLARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. In *E Conference Zone* (pp. 44-47).

33. Normuradova, Z. F., and S. M. Arzikulova. "QUYONLARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI." *E Conference Zone*. 2022.

34. Abdigulomovich M. E., Bobokulovich D. N. Changes In The Postnatal Ontogenesis Of Histological Indicators Of The Four-Headed Muscle Number Of Hisori Sheep.

35. Babashev A. et al. LITERATURE DATA OF PATHOMORPHOLOGY OF JOINT DISEASES IN HORSES.

36. Boboqulov Avazbek, Murodullayev Javohir, & Muxtarov Elmurod. (2022). QONDAGI ALBUMINNING TURLI SHASHROITLARDAGI KO'RSATKICHLARI . *World Scientific Research Journal*, 2(2), 128–132. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/8>

37. Zafarovich D. S., Babakulovich D. N., Norboyevich C. O. Changes in the Amount of Calcium and Phosphorus in the Composition of the Femur Bone of Broiler Chickens in Postnatal Ontogenesis //International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 21-25.

38. Zarpullayev P., Dilmurodov N. FERULA ASSAFOETIDA O 'SIMLIGINING HAYVONLARNING REPRODUKTIV FAOLIYATIGA TA'SIRI //Conferencea. – 2022. – С. 88-90.

39. ДИЛМУРОДОВ Н. Б. ФИЗИЧЕСКИЕ параметры МЕТАПОДИЯ ОВЕЦ ГИССАРСКОЙ ПОРОДЫ В ПОСТНАТАЛЬНОМ ОНТОГЕНЕЗЕ //Вестник ветеринарии. – 2015. – №. 4. – С. 58-60.

40. Дилмуродов Н. Б., Дониёров Ш. З., Султонов Б. А. БРОЙЛЕР ЖЎЖАЛАРИ УЗАНГИЛИК (ЦЕВКА) СУЯГИНИНГ МОРФОГЕНЕЗИГА ПРОБИОТИКЛАР ТАЪСИРИ //Вестник Ветеринарии и Животноводства. – 2021. – Т. 1. – №. 2.

41. Дилмуродов Н. Б., Дониёров Ш. З., Чориев О. Н. БРОЙЛЕР ЖЎЖАЛАР ЕЛКА СУЯГИ ТАРКИБИДАГИ КУЛ ВА УМУМИЙ ОРГАНИК МОДДАЛАР МИҚДОРИНИ ПОСТНАТАЛ ОНТОГЕНЕЗДА ЎЗГАРИШИ //Вестник Ветеринарии и Животноводства. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

42. Дилмуродов Н., Мухторов Э. ТУРЛИ ЯШАШ ШАРОИТИДАГИ ҲИСОРИ ЗОТЛИ ҚЎЙЛАР ПОСТНАТАЛ ОНТОГЕНЕЗИДА ОЁҚЛАР ПРОКСИМАЛ МУСКУЛЛАРИНИНГ МОРФОМЕТРИК ХУСУСИЯТЛАРИ //Вестник Ветеринарии и Животноводства. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

43. Кулиев Б.А., Ахмедов С.М., Зайниддинов Б.Х. Лечение т-активином ягнят каракульской породы, больных пневмонией. Витебск ВГАВМ 2019, Б. 123-125

44. Doniyorov Shohrukh Zafarovich, Dilmurodov Nasriddin Babakulovich. Changes In Natural And Hygroscopic Moisture Content Of Broiler Chickens In Postnatal Ontogenesis. NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. 2021/12/30. С 15710-15713

45. Насриддин Бабакулович Дилмуродов, Шохрух Зафарович Дониёров, Отабек Норбоевич Чориев. БРОЙЛЕР ЖЎЖАЛАР ЕЛКА СУЯГИ ТАРКИБИДАГИ КУЛ ВА УМУМИЙ ОРГАНИК МОДДАЛАР МИҚДОРИНИ ПОСТНАТАЛ ОНТОГЕНЕЗДА ЎЗГАРИШИ. Вестник Ветеринарии и Животноводства. 2022/2/2

MUHADDIS MUHAMMAD IBN ISMOIL AL -BUXORIY ASARLARIDA
HADIS ILMINING O`RNI

Shabdullayeva Lazokaton Orifbekovna
“Umumiy pedagogika” kafedrasi o`qituvchisi
Murodaliyeva Zeboxon Muzaffarovna
Andijon Davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hayoti, ilmga bag`ishlangan yillari, asarlari va hadis ilmi haqida fikr yuritilgan. Muhammad ibn al -Buxoriy haqida bildirilgan fikrlardan namunalar keltirilgan. Qur`oni karimda ham Rasululloh (alayhissalom) hadislarida ham odob-ahloq masalalariga alohida e`tibor qaratilgan. Hadislarda “Kuchli mo`min Alloh taologa zaif mo`mindan ko`ra mahbubroq va afzalroq” ekani bayon qilinadi. Hozirgi globallashuv sharoitida “kuchli mo`min” deyilganda nafaqat mushaklar bilan, balki, ilm-ma`rifat, zamonaviy fan-texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish orqali uni jamiyat manfaatlari uchun qildiradigan insonni tushunamiz.

Kalit so`zlar: Muhaddis, ilm, asarlar, hadis ilmi, tafsir ilmi, fiqh ilmi, lug`at ilmi, olim, imom, din peshvosi, ma`rifat, “Al-Jomi as-Sahih”.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается жизнь Мухаммада ибн Исмаила аль-Бухари, его годы, посвященные науке, его труды и наука о хадисах. Примеры мнений, высказанных о Мухаммаде ибн аль-Бухари. И Священный Коран, и хадисы Пророка (мир ему и благословение) уделяют особое внимание вопросам манер. В хадисах сказано, что «сильный верующий более любим и предпочитается Аллаху, чем верующий слабый». В условиях современной глобализации, когда мы говорим «сильноверующий», мы имеем в виду человека, который делает это на благо общества не только мускулами, но и эффективно используя достижения науки, просвещения, современной наука и технология.

Ключевые слова: Мухаддис, наука, произведения, наука о хадисах, наука о толковании, наука о правоведении, наука о словарном запасе, ученый, имам, религиозный лидер, просветительство, «Аль-Джами ас-Сахих».

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog`ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, shunday

degan edi: “Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo‘nim topgan ushbu maskanda o‘ziga xos ma‘naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o‘ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o‘rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug‘ ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodi mas‘uliyatini his etadi”.

Òzbekistonda ilmga qiziqish ayniqsa al-Buxoriy asarlari bugungi kunda yoshlar ortasida katta qiziqish bilan òrganilishi yurtimizda olib borilyotgan sai-harakatlar tufaylidir. Al-Buxoriy xotirasi kuchli zehni òtkir, juda uquvli, tez yodlab olishi, zakovatli, iqtidorli, keng tafakkurli va istagan narsasini juda tez esga olib takrorlashi bilan tengdoshlari orasida yagona edi. Al-Buxoriy milodiy 810-yilda (hijriy 194-yil) Buxora shahrida dunyoga kelgan. U bolalik cho‘g‘laridayoq Buxorodagi yetuk allomalardan dars olgan. U hadis ilmida kuchli xotira egasi bòlib voyaga yetdi. U 10 yoshidanoq hadis tinglashni boshlagan va 15 yoshgacha 70 mingga yaqin hadisni yod olgan. U ozi haqida shunday deydi: „Men boshlang‘ich maktabda òqib yurgan kezlarimdayoq hadis yodlash menga ilhom qilindi. Avval u Abdulloh ibn al-Muborak va Vaki ibn al-Jarohning hadis tòplamlarini tòliq yod oladi. U yodlab olishi uchun bir marta kòrishi yoki eshitishi yetarli edi. Ustozi imtihon qilganida 15000ga yaqin hadisni yoddan aytib beradi. Eng ahamiyatlisi shundaki u bu hadislarni yozib bormagan edi. U barcha òtilgan hadislarni birma-bir aytib berganda qolgan tengdoshlari yozgan daftardagi xatolarini tòg‘irlab olishadi. Muhammad Ismoil al -Buxoriy 16 yoshida onasi va birodari Ahmad bilan birgalikda haj ziyoratiga borish cho‘g‘ida islom òlkalaridagi ilm markazga sayohat qiladi. Onasi va birodari Buxoroga qaytyotkanlarida Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy ilm òrganish istagi bilan makkada qoladi. U Hijozda 6 yil istiqomat qiladi va hadis ilmini mikammalroq òrganadi. U 18 yoshida „Kitob qazoyas sahoba va tobein"va „at -Tarix al -kabir " nomli asarlarni yozadi .Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy juda ko‘p ilmiy sayohatlar uyushtirgan. U Balxda-Makkiy ibn Ibrohimdan hadis tinglaydi. U Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning katta ustozlaridan birinchisi hisoblanadi. Juda ko‘pgina ilm ahlidan hadis tinglagan va ta’lim olgan. Zahabiyning ta’kidlashicha, “Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tahsilini tamomlab kitob yozishga va hadis rivoyat qilishga boshlagan paytida hali yuzida bir tuk chiqmagan o‘spirin edi”. Faqat kitob yozishga kirishishi hadis talabini so‘ngiga yetganini bildirmaydi. “Kishi o‘zidan katta bo‘lganlardan, tengdoshlaridan va o‘zidan kichik bo‘lganlardan ilm olmaguncha kamolga erishmaydi”, degan Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 1080 ta kishidan hadis tinglab, ilm o‘rgangan.Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy mashg‘ul bo‘lib faoliyat olib borgan ilmlarni quyidagicha tartiblash mumkin:

Hadis ilmi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hadislarni yod olish bilan birgalikda ularning isnodlarini va uni xilma-xil yo‘llarini mukammal o‘rgangan ushbu

sohada tengsiz edi. Uning bu ilmning eng cho‘qqisiga chiqqanligini tasdiqlovchi juda ko‘p hayotiy misollar mavjud. Misol uchun Abul Azhar dedi: “Samarqandda 400 ta hadis toliblari 7 kun davomida to‘planib, Muhammad ibn Ismoilni xatoga tushirmoqchi bo‘ladilar. Ular Shom isnodini Iroq isnodiga, Yaman isnodini Haromayn (Makka va Madina) isnodiga aralashtirib, matnlarni ham chalkashtirib yuboradilar. Muhammad ibn Ismoil barcha hadislarni isnodlari bilan joy-joyiga qo‘yib aytib beradi”. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy dedi: “Men hadis isnodidagi barcha roviylarni tug‘ilgan va vafot etgan yili, yashab istiqomat qilgan joylarini bilmaguncha qabul qilmadim. Sahoba va tobe‘inlardan (mavquf) hadislarni Qur‘on va Rasululloh (s.a.v.) hadislarida asli bo‘lmasa rivoyat qilmadim. Men 100000 ta “sahih”(to‘g‘ri) va 200000 ta “g‘ayri sahih” (noto‘g‘ri) hadisni isnodlari bilan yod olganman” deydi .Tafsir ilmi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy buyuk muhaddis olim bo‘lish bilan birgalikda Qur‘on oyatlari nimaga dalolat qilishini juda yaxshi bilar edi. U Qur‘on va hadisdan shar‘iy masala bo‘yicha hukm chiqara olish qudratiga ega edi. Uning “sahih”idagi tafsir kitobini va “at-Tafsir al-kabir” asari bu sohada ham tengsiz ekanligiga yorqin misol bo‘ladi.

Fiqh ilmi. Hadislardan hukm olishda nimalarga e‘tibor qaratish kerakligini a‘lo darajada o‘rgangan Imom al-Buxoriy hadis ilmi bilan shug‘ullanish bilan birgalikda fiqh ilmi bilan ham mashg‘ul bo‘lgan. U yoshligidan boshlab “ahli ray” mazhabini juda yaxshi o‘rgandi. U sahobalarni so‘zlari va tobe‘inlarni fatvolarini yaxshi o‘rgandi. U hatto 18 yoshida ularga bag‘ishlab bir mustaqil asar yozdi. Uni buyuk faqih va tengsiz mujtahid ekanligini juda ko‘p ustozlari ta‘kidlaganlar Tarix va siyar ilmi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy bu ilm sohasida tengsiz edi. U hadis rivoyatidagi roviylar silsilasini har tomonlama mukammal o‘rgangan edi. U hadisni “sahih”ligini belgilovchi eng muhim jihat bu roviyning ahvolidir, degan. Uning eng birinchi yozgan asari “at-Tarix al-kabir” hisoblanadi.

Jarh va ta‘dil ilmi. Hadis ilmining muhim bir sohasi bo‘lmish “aj-Jarh vat ta‘dil” ilmiga oid fikrlar sahobalar davrida bildirilgan. Lekin, bu soha bo‘yicha yozilgan eng qiymatli asarlar Imom al-Buxoriy davriga to‘g‘ri keladi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy bu ilmda tengsiz hisoblanardi. Chunki, u sahoba davridan boshlab, o‘zini davrigacha bo‘lgan barcha isnodlarni juda mukammal va a‘lo darajada o‘rganib, ishonchli va mohirini muttahaam va yolg‘onchidan ajratgan.Hadis illati ilmi. Bu ilm maxfiyligi uchun hadis ilmining eng nozik va eng qiyin sohasi hisoblanadi. Muhammad bu ilmda bamisoli hilpirab turgan bayroq kabidir. Uning bu ilmdan xabardorligi va bilimdonligiga yorqin misol Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy “sahih” asaridir. Bu ilmdan bexabar bo‘lgan muhaddis qancha hadis yod olmasin “sahih” hadisni boshqasidan ajratib mustaqil bir asarda jamlay olmaydi.

Lug‘at ilmi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy bu ilmdan bo‘yicha ham benasib qolmagan. Bu ilm ayniqsa, faqihning asosiy qurolidir. “Sahih”ni ko‘p yerida kelgan

gʻarib narsalarni tushuntirib izohlash uchun qoʻllaganini koʻrishimiz mumkin. Imom al-Buxoriy Islom olami va muhaddislar orasida “Imom ul-Muhaddisiyn” (Barcha muhaddislarning peshvosi) deb hurmat bilan tilga olinadi. Imom al-Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” (Ishonarli toʻplam) asari haqida soʻz ketganda shuni aytish mumkinki, mazkur manba Islom dini taʼlimotida Qurʼoni karimdan keyin asosiy manba sifatida foydalaniladi. Imom al-Buxoriy yashagan davrdan oldin taʼlif etilgan hadis kitoblarida sahih va gʻayri sahih hadislar aralash holda berilgan boʻlib, oʻquvchi ulardagi biror hadisni toʻgʻri yoki notoʻgʻri ekanligini, hadis rivoyat qiluvchining ahvolini tekshirmay va aniqlamay turib, bilolmasdi. Buning uchun oʻquvchi oʻsha hadisga aniqlik kiritish maqsadida ulamolardan soʻrashga majbur boʻlard.

Mana shunday ogʻir davrda Imom al-Buxoriy “Al-Jomi’ as-Sahih” kitobini 16 yilda yozib tugatib, unga 7275 dan ortiq sahih hadislarini boblarga ajratib tartibli ravishda jamladi.

Imom al-Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” kitobiga mashhur olimlar tomonidan yuzdan ziyod sharh va xoshiyalar bitilgan. Jumladan, “Fathul-Boriy”, “Al-Kavkab ad-Daroriy”, “Irshodus-Sariy”, “Umdat al-Qoriy”, “Fayzul Boriy” va boshqa koʻplab sharhlarni misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari, Imom al Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad” (Odob durdonalari), “Birr ul-Volidayn” (Ota-onani hurmat qilish), “At-Tarix al-Kabir” (Katta tarix), “At-Tarix al-Avsat” (Oʻrtacha tarix), “At-Tarix as-Sagʻiy” (Kichik tarix), “Al-Jome’ al-Kabir” (Katta hadislar toʻplami), “Kitab al-Ilal” (Nuqsonli hadislar kitobi), “Kitab al-Kunya” (Hadis roviylarining taxalluslari) kabi yigirmadan ortiq asarlar mavjud. Demak, hadislar mazmunan har bir moʻminning ishonchini, eʼtiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni maʼnaviy kamolotga daʼvat etadi. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba boʻlib hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. 2022 yil yanvar-may oylari davomida quyidagi asarlar nashrga tayyorlandi: Imom Buxoriyning “Tarixus sagʻir”, yaʼni “Kichik tarix” asari. Unda 2997 nafar roviylar haqida maʼlumotlar jamlangan. Asarda mashhur sahobalar, tobeinlar va ularning izdoshlari va ular vafot etgan yillar, naslu nasabi, oʻzaro muloqotlari haqida soʻz yuritilgan.

Shunday qilib, Buxoriy asarlarida inson bilim olishi, hadislariga tayanishi, hunar egallashi, undagi manaviy ahloqni ulugʻlaganlar va hammani shunday fazilatli bõlirishga chorlagan. Maʼnaviy yuksak maʼnan barkamol zamonaviy ilm -fanni egallagan avlodu ajdodlarini boy maʼnaviy merosiga ega chiqqan avlod hech qachon gʻoya mafkura va tashqi kuch õz taʼsiriga tushura olmaydi. Bunday avlodni voyaga yetkazgan xalq kelajagi porloq va buyukdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Moziydan taralgan ziyo. Imom al Buxoriy, T., 1998;
2. Imom al-Buxoriy. Al-jome' as-sahih (1-jild)
3. Islom ensiklopediyasida.
4. Imom alBuxoriy — muhaddislar sultoni [nashrga tayyorlovchilar Usmonhoji Temurxon o'g'li, Baxtiyor Nabixon ugli], T., 1998
5. Internet ma'lumotlari: <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/imom-al-buxoriy-810-870/>, <https://www.qadriyat.uz/tarix/faqihlar/628-imom-abu-khafs-kabir-bukhorij>.

TERMOELEKTRIK MATERIAL OLIHDA STEKIOMETRIK TARKIBNI O'RGANISH

G'aynazarova Qizlarxon Isroilovna

Farg'ona davlat universiteti fizika fanlar nomzodi PhD

q.gaynazarova3011@gmail.com

+99891 105 25 63

Mirzaikromova Durdon Baxodir qizi

FarDU 1-kurs Fizika (Yarimo'tkazgichlar fizikasi) magistranti

mirzaikromovad@gmail.com

+99890 845 73 77

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektrofizik parametrlarga ega bo'lgan yarimo'tkazgich termoelektrik qotishmalar olishda qotishmaning stexiometrik tarkibi o'rganildi.

Kalit so'zlar: termoelektrik material, kvarts tigel, qotishma, stehiometrik tarkib, tellur, bismuth, surma

Hozirgi kunda fan va texnikaning keng rivojlanishi natijasida yarimo'tkazgich materiallarga bo'lgan talab, elektr energetikaning texnologiyalar bo'yicha kelajakda elektr ta'minotida qilinadigan ishlarni keng ko'lamini ochib bermoqda. Ular asosida yarimo'tkazgich asboblari, energiya o'zgartirgich asboblari, avtonom tok manbalari termobatareyalari, kompyuter- texnikasi kabi asboblarda keng qo'llanilmoqda. Bularning hammasi termoelektrik materiallarini olish texnologiyasi turlicha usullarda amalga oshirilsa, bu usullarda olingan materiallarning xarakteristikalari ham turlicha bo'ladi.

Bizgacha ko'rilgan usullarning o'ziga xos yutuq va kamchiliklari mavjud. Shuning uchun inert gaz bosimi ostida $Bi_2Te_3 - Sb_2Te_3$ termoelektrik materialini olishni ko'rib o'tamiz. Ma'lumki qotishmaga kiruvchi moddalar turli zavodlarda ishlab chiqiladi, ularning tozalik darajasi ham turlicha bo'ladi. Bunday moddalardan olingan qotishmalar ayrim vaqtlarda talab darajasidagi xarakteristikani bermaydi. Dastlab qotishmaga kiruvchi moddalardan legirlashga yaroqli asos olish uchun $\alpha=200-240$ mkv/grad $\sigma=400-600$ $Om^{-1} \cdot sm^{-1}$ xarakteristkaga keltirish uchun tarkibiga qo'shimcha xalkogenidlar kiritish va uning uchlangan tarkibga kiruvchi Bi, Te, Se, Sb materiallar tanlanib, ya'ni $Bi_2Te_3 - Bi_2Se_3$ va $Bi_2Te_3 - Sb_2Te_3$ asosning stexiometrik tarkibi nazariy hisoblab quyidagi p va n tip materiallar uchun topiladi. Shunga ko'ra, n-tip $Bi_2Te_3 - Bi_2Se_3$ tarkib uchun

Bi-54,1678 mol %, Te-39,6924 og'ir %, Se-6,1398 mol %,

p-tip $\text{Bi}_2\text{Te}_3 - \text{Sb}_2\text{Te}_3$ tarkib uchun Bi-16,179 mol %, Te-56,993 mol %, Sb-26,828 mol % topiladi.

Masalan termoelektrik materiallardan n-tip $\text{Bi}_2\text{Te}_3 - \text{Bi}_2\text{Se}_3$ tarkib uchun yuqorida keltirilgan og'irlikdagi moddalarni torozida juda aniq tortib olinib quyidagi hisoblashlar bajariladi.

Ikkilangan qotishmalarning stexiometriyasini hisoblash

1. Bi_2Te_3

Vismutning atom og'irligi, Bi-208,980

Tellurning atom og'irligi, Te-127,60

Bi_2Te_3 yozish mumkin $2\text{Bi}+3\text{Te}$ u holda

$$2 \cdot 208,980 + 3 \cdot 127,60 = 417,96 + 382,8 = 800,76$$

Proporsiya yo'li bilan qancha vismut va tellurni aniqlaymiz

$$800,76 \text{ — } 100\%$$

$$417,96 \text{ — } X_{\text{Bi}}$$

$$X_{\text{Bi}} = \frac{417,96 \cdot 100}{800,76} = 52,195 \approx 52,2$$

$$800,76 \text{ — } 100\%$$

$$382,8 \text{ — } X_{\text{Te}}$$

$$X_{\text{Te}} = \frac{382,8 \cdot 100}{800,76} = 47,8$$

Bi_2Te_3 stexiometrik tarkibni eritish uchun

Bi — 52,2%

Te — 47,8%

Gramm hisobida tortib olish kerak.

Huddi shunday usulda Sb_2Te_3 ham hisoblab topiladi.

2. Uchlangan $\text{Bi}_2\text{Te}_3 - \text{Sb}_2\text{Te}_3$ xisoblash uchun Bi_2Te_3 ni va Sb_2Te_3 ni necha foizligini bilish kerak.

Agar $\text{Bi}_2\text{Te}_3 - 26\%$

$\text{Sb}_2\text{Te}_3 - 74\%$

$$800,76 + 626,3 = 1427,06$$

Umumiy atom og'irligidan necha foizni Bi_2Te_3 va Sb_2Te_3 ekanligini hisoblash kerak.

$$1427,06 \text{ — } 100\%$$

$$x_{\text{Bi}_2\text{Te}_3} \text{ — } 26\%$$

$$X_{\text{Bi}_2\text{Te}_3} = \frac{1427,06 \cdot 26}{100} = 371,03$$

$$1427,06 \text{ — } 100\%$$

$$x_{\text{Sb}_2\text{Te}_3} \text{ — } 74\%$$

$$X_{\text{Sb}_2\text{Te}_3} = \frac{1427,06 \cdot 74}{100} = 1056,02$$

Bi_2Te_3 ni necha foiz Bi yoki Te ligini topish uchun

371,03—100%

X_{Bi} —52,2%

$$X_{\text{Bi}} = \frac{371,03 \cdot 52,2}{100} = \frac{19368,76}{100} = 193,67$$

$$X_{\text{Te}} = 371,03 - 193,67 = 177,36$$

Huddi shunday amallar Sb_2Te_3 necha foizi Sb yoki Te ligi aniqlanadi.

Umumiy atom og'irliklarining necha foizini tellur hosil qilganligini topish uchun proporsiya tuzamiz.

1427,06 —100%

823,65 — x_{Te}

$$X_{\text{Te}} = \frac{823,65 \cdot 100}{1427,06} = 57,71$$

Surmani topish uchun

1427,06—100%

409,73 — x_{Sb}

$$X_{\text{Sb}} = \frac{409,73 \cdot 100}{1427,06} = 28,71$$

Bi ni aniqlash uchun

$$X_{\text{Bi}} = 100 - 57,71 - 28,71 = 13,58$$

Demak uchlangan Bi_2Te_3 -26%, Sb_2Te_3 -74 % bo'lgan stexiometrik tarkibdagi qotishma olish uchun quyidagi foiz og'irlikdagi moddalarni tarozida tortib olish kerak.

Sb-28,71g

Te-57,71g

Bi-13,58g

100,0

Amalda tortib olingan material tarkibini kvarts tigelga yuqoridan quyi tomon Bi – Te- Se yoki Bi –Te- Sb sxema asosida yuklanadi.

Natijada, stexiometrik tarkibga ega elementlar inert gaz bosimi ostida qotishma olish qurilmasiga solinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Онаркулов, К. Э., Гайназарова, К. И., & Уктамова, М. А. (2022). Получение пленок из полупроводниковых материалов путем конденсации лучей в вакууме. *o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 1(8), 839-842.
2. Onarkulov, K., Gaynazarova, K., & Tashlanova, D. (2022). Termoelektrik samaradorlikni qotishmalardagi elektronlar va teshiklarning harakatchanligiga bog'lanishi. *Science and innovation*, 1(A4), 56-59.

3. Зокиров, А., & Гайназарова, К. (2022). ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ АФН ПЛЕНОК ИЗ ХАЛЬКОГЕНИДОВ КАДМИЯ. *Scientific Collection «InterConf»*, (103), 202-208.
4. Azimov, T. M. R., Onarkulov, K. E., & G'aynazarova, K. I. (2020). EFFECT OF COMMUTATION SOLDER ON THE OPERATING CHARACTERISTICS OF COOLING ELEMENTS BASED ON BISMUTH AND ANTIMONY CHALCOGENIDES. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (1-2), 21-25.
5. Karimberdi, O., Usmanov, Y., & Toolanboy, A. (2020). Semiconductor sensor for detecting volume changes at low temperatures. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 2353-2358.
6. Ахмедов, М. М., Гайназарова, К. И., Кадыров, К. С., & Онаркулов, М. К. (2020). О химическом составе тензочувствительных пленок на основе системы Bi-Sb-Te. *Universum: технические науки*, (2-1 (71)), 38-42.
7. Набиев, М. Б., Онаркулов, К. Э., Ахмедов, М., Гайназарова, К., & Исроилжонова, Г. С. (2017). Разработка и исследование экстремальных режимов работы полупроводниковых термоэлементов нестационарного термоэлектрического охлаждения. In *Актуальные вопросы высшего профессионального образования* (pp. 101-104).

O'QUVCHI YOSHLARNI MUSIQIY TA'LIMDA CHOLG'U IJROCHILIGIGA QIZIQTIRISH

Ro'zimurodov Ilyosjon Azamat o'g'li

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Musiqqa madaniyati fakulteti "Ijrochilik mahorati va madaniyati"
kafedrasi o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqa, musiqa cholg'u asboblari, ularning turlari, bolalarning musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishi, musiqa o'qituvchisi nazoratida bolalarning qo'shiq kuylashi holati, bolalarda cholg'uchilikka oid ijodkorlikni shakllantirish, shu maqsadda musiqa psixologiyasi va turli xil o'yinli texnologiyalardan foydalanish, notaga qarab ijro qilish hamda uning murakkab jarayonlari to'g'risida batafsil yozilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy-ritmik harakatlar, musiqa psixologiyasi, o'yinli texnologiyalar, taraqqiyot strategiyasi

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается музыка, музыкальные инструменты, их виды, детские музыкально-ритмические движения, состояние детского пения под наблюдением учителя музыки, формирование детского музыкального творчества, музыкальная психология, использование различных игровых технологий, игра согласно примечанию, а также его сложные аспекты. Ключевые слова: музыка, музыкальные инструменты, дети, музыкально-ритмические движения, музыкальная психология, музыка.

ABSTRACT

This article discusses music, musical instruments, their types, children's musical and rhythmic movements, the state of children's singing under the supervision of a music teacher, the formation of children's musical creativity, musical psychology, the use of various gaming technologies, playing according to the note, as well as its complex aspects. Keywords: music, musical instruments, children, musical-rhythmic movements, music psychology, music.

KIRISH. Musiqqa (yun. mousiche — muzalar san'ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui bo'lib, bugungi kunda musiqa va san'atning inson hayotidagi tutgan o'rni benihoya oshib bormoqda. Shu sababli ham aholi o'rtasida bunga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada kuchaymoqda. Shuni hisobga olgan holda o'sib kelayotgan yosh

avlod qalbida milliy musiqaga bo'lgan qiziqishlarini kehg imkoniyatlarni ishga solgan holda singdirib borishni taqazo etadi.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy madaniyatimiz va san'atimizni yanada rivojlantirish, avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy merosimizni ko'z qorachig'idek asrash va uni aholi o'rtasida keng targ'ib qilish borasida ko'plab qaror va farmonlar qabul qilinmoqda hamda hayotga tatbiq etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli qarorida aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va ularni qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: shu bois pedagogik mahoratni qo'llagan holda

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida:

o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjati (shahodatnoma)ga tegishli qayd kiritiladi;

musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkaziladimilliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi;

musiqa fani uchun ajratilgan o'quv soatlari doirasida “Hayotimga hamrohdir cholg'u” shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yiladi;

notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlash umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tizimiga kiritiladi;

o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko'ra milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik yo'nalishlarida amaliy to'garaklar (keyingi o'rinlarda — amaliy to'garaklar) tashkil etiladi;

amaliy to'garaklar rahbarlariga “Barkamol avlod” bolalar maktablari to'garak rahbari uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalari qo'llaniladi;

amaliy to‘garaklarni olib borish hisobi “Elektron kundalik” dasturi orqali amalga oshiriladi hamda har chorakda to‘garak ishtirokchilarining hisobot konsertlari tashkil qilinadi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda hududlardagi umumta’lim maktablarida musiqa va madaniyatni har tomonlama o‘zlashtira oladigan yosh iste’dodlar aniqlanib. Ularga tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar berilib, shu sohaning haqiqiy mutaxassislari shakllantirilishiga erishiladi. Bunda o‘qituvchi har bir bolaga pedagogik nuqtai nazardan yondoshib, bolaning psixologik jihatlarini hamda jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini puxta o‘rganishi katta ahamiyatga egadir. O‘z iqtidorini boshqalarga nisbatan erta namoyon etuvchi o‘quvchilarni saralab olish va ular bilan individual tarzda ko‘proq amaliy ishlarni olib borish, ularni ko‘rik-tanlovlarga jalb etgan holda yaxshi natijalarga erishtirish hamda yutuqlarning samarasi ularoq ularni har tomonlama rag‘batlantirish ishlarini to‘g‘ri tashkil etmog‘imiz lozim/

Musiqa insonning turli kayfiyatlari (masalan, ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv va boshqalar) ni o‘zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat’iyatlik, intiluvchanlik, o‘ychanlik, vazminlik va boshqalar) ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy-tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari — Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabi, tasavvuf arboblari — Imom G‘azzoliy, Kalobodiy Buxoriy va boshqalar tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta’sir etishining ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo‘lgan protsessual — muayyan jarayonli tabiati bilan bog‘liqdir. Musiqa asarlari mazmunida badiiy g‘oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o‘zaro munosabatlar (taqqoslanish, to‘qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko‘ra musiqa mazmuni ham turli — epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo‘lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo‘lgan lirika musiqaning "botiniy" tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo‘lib, bunda ma’lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur’at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma’naviy-ma’rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko‘pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o‘zaro etik va estetik ta’sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg‘ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir (5).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'quvchi yoshlarni musiqiy ta'limda cholg'u ijrochiligiga qiziqtirish to'g'risida fikr yuritishdan avval, musiqa cholg'u asboblari haqida to'xtalib o'tsak. Musiqa cholg'u asboblari musiqiy ton yoki o'ziga xos jarangdor tovushlar hamda ma'lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo'ljallangan cholg'u asboblari; musiqani yakkanavoz yoki jamoa (turli ansambl, orkestr va boshqalar) tarzda ijro etishda ishlatiladi. Har bir musiqa cholg'u asboblarining sadosi o'ziga xos tembr, ma'lum diapazon, tovushqator va ifodaviy imkoniyatlarga ega. Musiqa cholg'u asboblari sadosining sifati, ko'pincha, muayyan cholg'u asbobining shakli, umumiy tuzilishi, qurilmasi va uni tayyorlashda ishlatilgan materialga bog'liq. Musiqa cholg'u asboblari qadimdan qamish, bambuk, yog'och, tosh, suyak, metall, teri, ipak, kokos yong'og'i, qovoq va boshqalardan tayyorlangan. Sadolanish xususiyatini qo'shimcha vositalar, ijrochilik uslublari (masalan, torli sozlarni tirnab-chertib chalish, flajolet va boshqalar), ba'zi musiqa bezaklari yordamida o'zgartirish mumkin. Uning paydo bo'lishi insoniyat tarixining ilk davrlariga to'g'ri keladi, mukammallanishi esa musiqa san'ati va ijrochilikning rivojlanishi hamda musiqa cholg'u asboblarini ishlab chiqarish texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. Musiqa cholg'u asboblari tovush manbalariga qarab guruhlariga, ijrochilik uslubi (yoki ishlatilgan mexanizmi) ga qarab guruhchalarga, o'ziga xos qo'shimcha belgilariga qarab xillarga bo'linadi. Musiqa cholg'u asboblari, asosan, torli (xordofonlar), puflab chalinadigan (aerofonlar), teri qoplamali (membranofonlar), tilchali (gemidiofonlar), plastinkali, elektr va elektron musiqa cholg'ulari- idiofonlar guruhlariga bo'linadi. Torli cholg'u asboblarning guruhlari: kamonli sozlar (skripka, alt, violonchel, kontrabas, viola, o'zbek sozlaridan g'ijjak, ko'biz, sato va boshqalar), chertib chalinadigan sozlar (arfa, gusli, sitra, gitara, balalayka, dutor, tanbur, rubob, setor, do'mbira va boshqalar), urib chalinadigan torli sozlar (chang, simbali va boshqalar), klavishli urib chalinadigan sozlar (klavikord, fortepiano, royal), klavishli chertib chalinadigan sozlar (klavesin va uning turlari). Puflab chalinadigan cholg'u asboblarning guruhchalari: tilchali sozlar (surnay, qo'shnay, bo'lamon, shoxnay, klarnet, goboy va boshqalar), tilchasiz sozlar (naylar, fleytalar), mundstukli sozlar (truba, valtorna, tuba, karnay va boshqalar), pnevmatik klavishli sozlar (organ va uning turlari). Tilchali cholg'u asboblarning bo'linmalari: pnevmatik klavishli sozlar (fisgarmoniya, bayan, akkordeon va boshqalar), chertib chalinadigan sozlar (changqobiz va uning turlari), urib chalinadigan sozlar (fleksatonlar). Teri qoplamali urib chalinadigan cholg'u asboblarning guruhchalari: sozlanadigan (litavralar), sozlanmaydigan (nog'ora, doira, baraban, tamburin va boshqalar) cholg'u asboblari. Plastinkali cholg'u asboblarning guruhchalari: urib chalinadigan rezonatorsiz sozlar (ksilofonlar va boshqalar), urib chalinadigan rezonatorli sozlar (ovoz beradigan plastinkalari ostida ma'lum hajmdagi rezonatorlar — trubkalar, bo'sh idishlar va h. k. o'rnatilgan metallofon, marimba, vibrafon va boshqalar), klavishli urib chalinadigan

sozlar (chelesta va boshqalar). Idiofonlarning guruhchalari: sozlanadigan (orkestr kolokoli, ko'ng'iroqchalar, gong va boshqalar), sozlanmaydigan (tarelkalar, tamtam, marakas, qayroq, qoshiq, safoil, likop, patnis, mislagan, zang va boshqalar) cholg'u asboblari. Musiqa cholg'u asboblari. ba'zida xalq va professional (orkestr) turlarga ham bo'linadi. Orkestr cholg'ulari kompozitor tomonidan yaratilgan, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan ko'p ovozli musiqa asarlari ijrosiga moslashtirilgan. Xalq cholg'ulari esa ma'lum millat (elat) monodik musiqa ijrosi uchun qo'llaniladi va musiqiy tovush quroli bo'lish bilan birga, moddiy madaniyat mahsuli hamdir; mukammal shaklda xalq badiiy tafakkuri, nafasat tasavvurlari, ramziy ma'nolar aks etgan. Cholg'ular xalq hayotida sof estetik vazifa bajarishdan tashqari shomonbaxshilar, afsungarlar ruhiyatga ta'sir o'tkazishda, harbiylar, cho'ponlar, dehqonlar tomonidan boshqaruvchi, qo'rqituvchi, chorlovchi tovush quroli sifatida foydalanib kelingan. (7)

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bolalarda musiqa tinglashga ishtiyoqni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda musiqiy asarning o'rnini ham kattadir. Musiqa asarining kayfiyati, xarakterini mustaqil farqlash, taassurotlari haqida hikoya qilishga o'rgatish, vokal va cholg'u asarlaridan bahramand qilish va bu janrlar haqida tushuncha hosil qilish, ularni farqlashga o'rgatish. Marsh, qo'shiq va raqs haqidagi bilimlarini kengaytirish, o'zbek xalq kuylari bilan tanishtirib borish, doira va nog'ora sadolaridan bahramand qilish, qayroq, taxta qarsak bilan tanishtirish har bir musiqa o'qituvchisining oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, bolalarning musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishi, ya'ni musiqaning tempi, ritmi, xarakteriga mos ifodali harakatlanishi, kuy qismlari almashishiga qarab harakatlarni o'zgartira olishi zarur. Yengil, prujinasimon yurish, yugurish, sakrash, olding va orqaga, yonga qadam tashlash, oldinga hakkalash, raqs harakatlarini sifatli bajarishga o'rgatish, musiqa ostida qatorlarga saflanish va mashqlar bajarish, qatorlardan doiraga shakliga o'tish, katta va kichik doiralar hosil qilish, bir nechta kichik doirachalarga bo'linishga o'rgatish, bolalarga o'zbekcha raqslar bilan bir qatorda turli xalqlar raqslarini o'rgatish, bolalarda raqsga oid ijodkorlikka undash va uning namoyon bo'lishini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega. Musiqa o'qituvchisi nazoratida bolalarning qo'shiq kuylashi holati quyidagicha amalga oshiriladi: bolalarda ifodali, sof va tabiiy ovozda kuylashga o'rgatish, bolalarni ovozining yosh xususiyatlarini hisobga olib repertuar tanlash, to'g'ri nafas olish hamda kuylash ko'nikma va malakalarini shakllantirish, kichik ansambl bo'lib kuylash, solist bilan kuylashga o'rgatish, kuy ohangini to'g'ri ijro etilishiga erishish, shu bilan birga bolalarni ijrochilik cholg'ulariga qiziqtirish hamda ularni chalishga o'rgatish esa: doira, nog'ora, safoyil, quticha, taxta qarsak kabi cholg'ulari va ularda ijro etish usullari bilan tanishtirish, ovozidan farqlashga o'rgatish, kattalarga jo'r bo'lib zarbli orkestr hosil qilish juda yaxshi samara beradi.(6)

Bolalarda cholg'uchilikka oid ijodkorlikni shakllantirishda asosan, o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shiqlarni sahnalashtirish, davra qo'shiqlarida so'z, musiqa va harakatlarning bir-biriga mos bo'lishiga erishish, o'yinlarda musiqa mashg'ulotining barcha bo'limlaridan olingan bilimlarini mujassam holda namoyon etishga o'rgatish, obrazli harakatlarni bajarishda bolalarni umumiylikdan mustaqil va yakka bajarish sari boshlash, bolalarda obrazli tasavvur qilish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik kabi hususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish o'quvchi yoshlarni musiqiy ta'limda cholg'u ijrochiligiga qiziqishini uyg'otadi.

6 yoshli bolalar bilishi lozim bo'lgan bilimlar:

-Musiqqa asarining shaklini mustaqil aniqlay olish;

-Tinglangan asarlarning nomi va ijodkorlarini bilish;

-Musiqqa asarining mazmunini tushunish va kayfiyatini farqlash;

-Bir oktava oralig'ida notalarni bilish, tovushqatorini kuylash; -Vokal va cholg'u musiqasini farqlash;

-Orkestr, simfoniya, opera va balet janrlari haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish;

-Qo'shiq nomi va bastakorini bilish;

-Musiqaga mos mustaqil harakatlana olish;

-Kuy qismlari o'zgarishiga qarab harakatlarni o'zgartirish;

-Cholg'u asboblarni farqlay olish;

-Bolalar cholg'ularida ijro usullarini bilish;

-Mustaqil obrazli harakatlar o'ylab topa olish va bajara olish;

-Bayram ertaliklari va ko'ngil ochish soatlarida faol ishtirok etish.

Shu bilan birga 7 yoshli bolalar quyidagilarni bilishi kerak bo'ladi:

1. Kuylash va harakatlanishni musiqaga moslay oladi.

2. Tovushlarning balandlik, tembr, cho'zimlilik hususiyatlarini eshitish orqali farqlaydi.

3. Ma'lum raqs harakatlarini egallaydi.

4. Jamoa bo'lib va yakka raqsga tusha oladi.

5. O'yin, raqs va mashqlarda mimik harakatlarni aks ettira oladi.

6. O'zbek xalq cholg'u asboblarni ko'rinishi va ovoz tembriga ko'ra farqlaydi.

7. Bolalar cholg'ulari ansambli va orkestrida ijro etish malakalarini egallaydi.

8. Tinglangan va kuylayotgan kuy va qo'shiqlarini mazmunini anglaydi va bayon etadi.

9. To'rli musiqiy o'yinlarni mustaqil tashkil eta oladi.

10. Bayram ertaliklarida faol ishtirok etadi. (1,26) Ta'lim tizimida integrallashtirilgan mashg'ulotlarda musiqali didaktik o'yin psixologiyasi haqida ham

qisqacha to'xtalib o'tsak. Musiqa psixologiyasi psixologiya yo'riqlariga asoslanar ekan, bu tarmoq bolalarning tabiiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltiruvchi va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mkon beruvchi musiqa pedagogikasiga uzviy bog'liqdir. Musiqani eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritmni aniqlash, tekshirish kabi an'anaviy usullar bilan bir qatorda musiqa psixologiyasida musiqiy zehn, musiqiy iste'dod, qobiliyatlarni aniqlash, asarlarni o'rganish va ular ustida ishlash, kontsertlarda chiqish uchun tayyorgarlik ko'rish, bolalar va kontsert jamoasi bilan o'zaro munosabatlar bolalar bilan ishlashning aniq usullarini topishga yordam beradi. (2,30) Shu bilan birga o'yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo'ladiki, buning oqibatida har bir bola o'zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi. Ijtimoiy hayotda o'zi egallagan o'rinni barqarorlashtiradi. O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. Mustaqil mashg'ulot qanday tuzilishi kerak va nimalardan iborat bo'ladi? Yuqorida aytib o'tganimizdek, mustaqil mashg'ulot uchun berilgan vazifa qanchalik aniq, konkret bo'lsa, o'quvchining vazifasi shuncha osonlashadi. Mustaqil mashg'ulot qanday kechishidan qat'iy nazar, uni ma'lum reja asosida olib borish yaxshi natija beradi. Quyida mutaql mashg'ulotlarning taxminiy tuzilishi va vaqtini keltiramiz: 1. Gamma, uch tovushliklar va turli mashqlarni ijro etish 10-15 daqiqa. 2. Yangi berilgan vazifani o'zlashtirish 15-20 daqiqa. 3. Dam olish uchun 5 daqiqa. 4. Oldin o'rganilgan vazifalarni takrorlash 20-25 daqiqa. Keltirilgan vaqtlar me'yori taxminiy bo'lib, uni belgilashda o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda vazifalar hajmining katta-kichikligiga qarab kamaytirish yoki, aksincha, ko'paytirish mumkin. Mustaqil mashg'ulot uchun keltirilgan taxminiy vaqtning jami 45-60 daqiqani tashkil etyapti. Bu bir qarashda kamdek ko'rinishi mumkin. Ammo mashg'ulotlar muntazam ravishda davom ettirilsa, ko'zlangan natijaga bemalol erishish mumkin. O'zbek xalq cholg'uchilarida ijroni o'rganayotgan yosh sozandalarda fortepiano bilan birgalikdagi ijro paytida ko'proq uchrab turadigan kamchiliklardan biri musiqa asari ijrosini fortepiano bilan bir vaqtda boshlay olmaslikdir. Bu paytda o'quvchining diqqati tamomila o'zining ijrosiga qaratiladi va natijada fortepiano jo'rliigi solistning ijrosi bilan bir vaqtga to'g'ri kelmay qoladi. Ijroni fortepiano bilan birgalikda boshlash ko'nikmasini shakillantirishda musiqa asarining birinchi tovushi boshlanishdan oldingi harakat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Buni asarning boshlanishidagi dirijyorning qo'l harakati (auftakt)ga o'xshatish mumkin. Musiqa asari davomida cholg'uchi partiyasida ma'lum miqdorda pauzalar uchrab turadi. Bunday paytda fortepianodagi ijro, odatda davom etadi. O'quvchi pauzalarning necha taktligini eslab qolish bilan bir qatorda o'z ijrosining qachon boshlanishini ham puxta bilib olishi kerak. Bunda pauza davomidagi fortepiano ijrosini to'la anglab olishi yaxshi natija beradi. Bundan tashqari, musiqa asaridagi asosiy kuyning yo'nalishini aniqlab olish fortepiano jo'rliigida ijro etishda asosiy vazifalardan biridir. Ma'lumki, har bir musiqa asari ma'lum kuy (ohang) asosida

qurilgan bo‘ladi. Mana shu kuy fortepiano partiyasidami yoki solist partiyasidaligini ajrata bilish konsertmeyster bilan chalish vaqtida ijroning to‘laqonli bo‘lishiga yordam beradi. Fortepiano partiyasini yuzaki bilish cholg‘uchi uchun hetarli emas. Fortepiano partiyasi solistning partiyasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, musiqa asarining buzilmas kompozitsiyasini tashkil etadi. Shuning uchun haqiqiy ijro ulardan ansambl qonun-qoidalariga bo‘ysungan holda katta mehnatni talab qiladi. Cholg‘uchining fortepiano bilan birgalikdagi ijrosi qanchalik o‘z vaqtida boshlansa, musiqa asarini o‘zlashtirilishi shunchalik sifatli va tez bo‘ladi. Notaga qarab ijro qilish murakkab jarayon bo‘lib, u maxsus mashqlar yordamida o‘zlashtiriladi. Notaga qarab ijro etish jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, unda quyidagi qismlarni ko‘rishimiz mumkin:

- nota ko‘rinishining o‘quvchi ongiga yetib borishi;
- o‘quvchi ongida qanday harakatni amalga oshirish kerakligining aniqlanishi;
- kerakli harakatlar yordamida berilgan notaning ijro etilishi.

Notaga qarab ijro etish jarayonining qanchalik tez sodir bo‘lishi nota ko‘rinishini qabul qili b (anglab), kerakli harakatni amalga oshirish tezligiga bog‘liq. Agar jarayonning biror qismi yaxshi ishlamasa, notaga qarab ijro etishda ko‘zlangan natijaga erishish qiyin bo‘ladi.(3,29) Notaga qarab ijro etishning murakkab taraflaridan biri shuki, musiqa asarining bir qismi ijro etilayotganda cholg‘uchi keyingi qismini ko‘rib, uning ijrosiga tayyorgarlik ko‘rishga tayyorlanadi. Tajribasiz o‘quvchilar ko‘p holda buning uddasidan chiqqa olmaydilar natijada, ularning ijrolari uzilib qoladi. Diqqat-e’tiborni bir maqsadga qarata bilish notaga qarab ijro etishning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishini ta’minlaydigan omillardan biridir. Notaga qarab ijro etish qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi amaliy mashqlar yordam berishi mumkin; eng oddiy musiqa, boshlang‘ich taktning birinchi yarmi ijro etilayotganda o‘quvchi o‘z e’tiborini shu taktning ikkinchi yarmiga qaratadi. Xuddi shu usul asarning keying taktlarini ijro etishda ham qo‘llanadi. Sozandada notaga qarab ijro eta olish qobiliyatini rivojlantirish muammosi va uni hal etishga qaratilgan ko‘rsatmalar musiqa pedagogikasida alohida o‘rin tutadi. Ko‘zga ko‘ringan ijrochi - o‘qituvchilarning fikricha, notaga qarab ijro etish sozandaning kundalik mashg‘ulotlari qatoridan o‘rin olishi shart. O‘quvchi muntazam ravishda notaga qarab ijro etish bilan shug‘ullangan taqdirda turli davrga oid bo‘lgan rang barang musiqa asarlari bilan tanishadi.(4,63)

XULOSA

Agar istisno tariqasida maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berishni ko‘radigan bo‘lsak, bunda musiqaning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash asosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin: 1. Musiqa – bolalar estetik tarbiyasida asosiy o‘rin tutadi. 2. Bolalar musiqiy-estetik madaniyatini shakllantirish muammosi asrlar davomida ilm ahli uchun dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Chunki jamiyat ma’naviyatini shaxs ma’naviyatining yuksakligi, qolaversa, bolalarning musiqiy estetik madaniyatning shakllanganlik darajasi tashkil etadi. 3. Hozirgi kunda

maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlari imkon darajasida tashkil etilgan, ammo kichik yoshdagi bolalarni estetik tarbilash uchun davr talabi asosida musiqa mashg'ulotlarini yanada takomillashtirish va qo'shiq o'rgatishda yangi texnologiyalardan foydalanishga undamoqda. 4. Bolalar ma'naviy-estetik tarbiyasini yanada takomillashtirish uchun mo'ljallangan tadbirlarda qo'shiq va raqslardan ko'proq foydalanish lozim. 5. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish maqsadida muntazam tashkil etiladigan tadbirlarga o'zgacha ruh bag'ishlash kerak. 6. Demak, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa vositasida kichik yoshdagi bolalarni musiqiy madaniyatini shakllantirishdan pirovard maqsadimiz xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyotini o'zida mujassam qilgan Ozod va obod Vatan quradigan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Omonullaeva D. Nazarov F. Burhonov D. Bolalar bog'chasida musiqa T.: O'qituvchi. 1990. 26-bet
2. Adabiyotlar: Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi. 1993. 30-bet
3. Abdurahmonova H.Sh. Bolalar bog'chasida musiqaviy o'yinlar va bayram ertaliklari. T.:
4. O'qituvchi. 1993. 29-bet 4. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm
5. ziyo. 2006. 63-bet 5. <https://fayllar.org/> 6. <https://uz.wikipedia.org/> 7. <https://goaravetisyan.ru/>

IMPORTANCE OF DEVELOPING MATERIALS IN ASSESSING LANGUAGE SKILLS IN TEACHING ENGLISH

Abbasova Shahnoza Sharifkulovna

Samarkand State Institute of foreign languages

Master Stage 2

Phd Normatova Nurjamal Normatovna

Annotation: This thesis is dedicated to highlighting the importance of developing materials in assessing language skills in teaching English.

Keywords: Language testing, consequential validity, construct validity, ethics, pedagogy, writing.

INTRODUCTION

Educators, researchers and language theorists need not remain passive victims of the assessment industry. George Hillocks, in his paper “Fighting Back: Assessing the Assessments”, argues that educators must confront assessment issues head on. By providing a list of questions educators and researchers can use to interrogate high-stakes writing tests, he in part lays the foundation for such an attack. His article, however, fails to provide a framework through which a coherent body of research related to the assessing of assessments can be developed.

MATERIALS AND METHODS

The basic format of Alberta’s English 30-1 writing exam is as follows: Students are given a maximum of three hours to complete two essay questions. These questions are linked thematically. The first question, the *Personal Response to Text Assignment*, is designed to stimulate student thinking for the second question, the *Critical/Analytical Response to Texts Assignment*. The exam permits students to respond to the questions from either a personal, critical or creative perspective. As well, the exam permits students to express their ideas in any form that they deem appropriate to the ideas they wish to express.

RESULTS AND DISCUSSION

Personal Response to Text Assignment. The suggested time for students to complete this assignment is between forty-five and sixty minutes. Before writing, students must read through four pages of print text and visual text provided. These texts are followed by a prompt which places them into context or which focuses the students’ attention to elements of the text that are most relevant to the writing prompt that follows. The prompt in the January, 2004 version of the exam read: “What do these texts suggest to you about the significance of our memory of the past? Support your

idea(s) with reference to one or more of the texts presented and to your previous knowledge and/or experience (Alberta Education, 2004, p. 7). Below the prompt, was a series of reminders for students:

- Select a *prose form* that is appropriate to the ideas you wish to express and that will enable you to effectively communicate to the reader;
 - Discuss ideas and/or impressions that are meaningful to you (p. 7).
- Four pages for planning and four pages for writing were provided.

This section of the exam is generally graded according to two, five-point analytic scales. The first scale, *Ideas and Impressions*, is focused on the quality of students' ideas, reflection and exploration of the topic. It also focuses on how effectively they support these ideas, reflections and explorations. *Presentation*, the second scale, focuses on:

- The effectiveness of voice and its appropriateness to the intended audience of the prose form the student has chosen;
- The quality of language and expression;
- The appropriateness of development and unifying effect to the prose form.

Markers are prompted to consider the proportion of error to the complexity and length of the response. The scale is somewhat relative; within different contexts certain types of errors will be scored more severely than others.

The assignment is generally marked using five, five-point analytic scales: (a) *Thought and Detail* is focused on how effectively the students' ideas relate to the assignment and on the quality of the literary interpretations and understandings the students develop; (b) *Supporting Evidence* is focused on the selection and quality of evidence and on how well the supporting evidence is integrated, synthesized and/or developed to support the student's ideas; (c) *Form and Structure* is focused on how well the student's organizational choices result in a coherent, focused, shaped and concluded discussion and in a unifying effect or a controlling idea that is developed and maintained; (d) *Matters of Choice* is focused on how effectively students' create voice through their use of diction, syntax, and other factors; (e) *Matters of Correctness* focuses on the student's correct use of sentence construction, usage, grammar and mechanics. Markers are required to consider the proportion of error in relation to length and complexity when assessing Matters of Correctness.

To determine what the exam values, one must look at the content, the scoring mechanisms and the structure which collectively constitute the exam. An analysis of the content and scoring mechanism reveals the following: The exam values knowledge about language structure – the structure of ideas, of paragraphs, of sentences. The exam also values knowledge about language as a tool through which one communicates ideas. To this end, it values idea formation and support, and it values the creation of

appropriate voice. Knowledge about voice is complex requiring knowledge about diction, syntax and punctuation.

An analysis of the exam's structure also reveals the knowledge and skills valued by the exam. Primary among these values is one's ability to generate, organize and effectively present one's ideas within tightly controlled timeframes. As a consequence of this emphasis on time controls, the exam also seems to place a value on one's ability to work effectively under pressure.

CONCLUSION

The discussion contained within this double issue is very important in terms of consolidating and expanding upon our current understandings of what counts as knowledge about language. This collaborative approach to defining knowledge is an essential element of academic discourse and it provides an effective platform upon which to build future practice. Current flawed language assessments, however, stand in the way of real progress in pedagogy. Collaborative approaches to challenging the validity of such tests will help remove this barrier. Additionally, through collaborative design, current problems can be avoided in future assessment development. Language theorists, seasoned educators, students and other stakeholders can work with assessment specialists to help them better understand the constructs they are measuring, and support them as they design tests that better reflect and support pedagogy. In fact, rather than minimizing the expectations for test validity on the basis of construct complexity and the difficulty involved in defining measurable constructs, assessment specialists should recognize the need to engage in collaborative design and should begin building research networks which include teachers, students, language and literacy specialists, curriculum developers and cognitive psychologists. Validity-based research provides both the rationale and the push for collaborative assessment design in language education. The issue is real, the time is now.

REFERENCES

1. Atwood, M. (2012). *Negotiating with the dead: A writer on writing*. New York: Cambridge University Press.
2. Britton, J. (2015). *The development of writing abilities (11-18)*. London: Macmillan Education.
3. Calkins, L. (2014). *The art of teaching writing*. Portsmouth, NH: Heinemann.
4. Dillard, A. (2019). *The writing life*. New York: Harper and Row.
- Elbow, P. (2011). *Writing with power: Techniques for mastering the writing process*. New York: Oxford University Press.

ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РОБОТ-ЧАНГЮТГИЧНИНГ ИШЛАШ ТАМОЙИЛИ ВА БОШҚАРИШ СТРУКТУРАСИ

*Доцент Х.Х. Таджиев,
Магистрант Зоҳид. Умурзоқов*

*Ислом Каримов номидаги
Тошкент давлат техника университети*

Анотация

Ушбу мақолада интеллектуал робот чангютгичнинг, ишлаш тамойили ва бошқариш структурасининг тузилиши ёритилган. Интеллектуал робот чангютгичларнинг энергия тежамкорлиги ва тозалаш сифати хақида малумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: Датчиклар, алгоритм, бошқарув пулти, корпус, ғилдирак, Ли-ион аккумулятор, махсус чоткалар, чангютгич, плата

Энг муқобил конструкциясидаги интеллектуал робот чангютгич тузилиши ва дизайни кўрсатиб ўтилган. Замонавий фан ва технологиянинг ривожланиши саноат ва ишлаб чиқариш тармоғи ва ижтимоий соҳа объектлари учун ҳам хизмат қилмоқда. Ҳозирги вақтда инсон эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда тобора кўпроқ янги интеллектуал қурилмалар яратилмоқда. Шундай интеллектуал тизимлардан бири интеллектуал робот-чангютгич ҳисобланади. Ушбу мақолада автоном тозалаш робот-чангютгичининг конструкциясини яратиш ишлаш тамойилларининг масаласи кўрилган. Бундай интеллектуал робот-чангютгич тизимлар, биринчи навбатда, унинг мавжудлиги ёки иштирокида ҳаёт ёки соғлиқ учун хавfli бўлиши мумкин бўлган саноат ва инсон фаолияти соҳаларида кенг қўлланилмоқда. Интеллектуал чангютгич-робототехник тизимларнинг асосий фарқловчи жиҳати шундаки, улар номаълум муҳитда ҳар қандай ҳаракатланувчи жисмлар ва тўсиқлар билан тўқнашувнинг олдини олиб, яқуний мақсадга эришиш қобилиятига эгалидир. Замонавий чангютгич роботлари уйни тозалаш вазифасини ўз зиммасига оладиган ва шу билан кўп фўйдаланувчининг вақтни тежайдиган самарали қулай ёрдамчилардир.


Интеллектуал чангютгич-робот қуйидаги ўлчамлар ва ишлаш тамойили билан тавсифланади.

Чангютгич-роботнинг баландлиги тахминан 10 см ва диаметри тахминан 30 см бўлган шарсимон, квадрат шаклида бўлади, аммо юмалоқ бурчакли моделлар мавжуд. Бундан ташқари ишлаш тамойили бўйича бир неча асосий босқичлар тасвирланган (1-расм).



1-Расм. Интеллектуал чангютгич роботининг ишлаш тамойли

Робот қаерда эканлигини билиш учун фойдаланувчи томондан бошқарув пульти орқали сигнал узатилади ва пулт экранни орқали фойдаланувчига маълумот узатади, унга бунинг датчиклар гуруҳи керак. Датчиклар гуриҳи тозалаш пайтида унинг хатти-ҳаракатларини ва уни амалга ошириш сифатини белгилайди. Фойдаланувчи томондан интеллектуал робот-чангютгичларига бошқарув пульти орқали техник топшириқларга мувофиқ тозалаш роботининг алгоритм синтезлаш орқали ҳаракатланиш харитаси ва модели асосида таркибий қисм элементлари ёрдамида ҳаракатланиши назарда тутилади. Робот ва объектнинг ҳолатини қайта созлаш ва координата траектория бўйича маълумотлар датчиклар гурҳи орқали амалга оширилади (3-расм). Роботнинг ҳаракатланиши ва бурилиш ҳаракатларини бажариши учун мехатрон модулдан фойдаланилади.



2-расм. Интеллектуал робот-чангютгичнинг структуравий блок схемаси.

Интеллектуал робот-чангютгичнинг структуравий

Схемаси асосида: - робот чангютгичнинг концептуал ва кинематик схемаси ишлаб чиқиш мумкин; - микроконтроллер турини танлаш мумкин; - роботнинг ҳаракатини автоматик режимда бошқариш схемаси ишлаб чиқиш мумкин; - роботнинг автоматик режимда ишлашини бошқариш дастурини ишлаб чиқиш мумкин.

Интеллектуал чангютгич-роботнинг ҳаракати электромотор ва кичик ғилдираклар ёрдамида амалга оширилади (3-расм). Чангютгич-робот корпусининг юқори қисмида жойлашган тугмалар билан бошқарилади. Аккумулятор билан жиҳозланган, унинг қуввати унинг узлуксиз ишлашини таъминлайди. Интеллектуал робот-чангютгичнинг таркибий қисмлари акс этган кўриниши 3-расмда келтирилган:



3-расм. Интеллектуал робот-чангютгичнинг қурилмасининг таркибий қисмлари

Интеллектуал робот-чангютгични функционал имкониятлари:

- Ишлаб чиқарилган йили. Бу аниқ мезон бўлиб туюлади, лекин кўпчилик буни эътиборга олмайди. Чунки интеллектуал технологиялар бир жойда турмайди-схемалар янгиланади, сенсорлар ва таркибидаги мехатрон ва бошқа таркибий қисмларнинг сифати деярли кундан кунга янгиланиб бормоқда;

- Ён чўткалар сони. Интеллектуал чангютгич-робот иккита ён чўтка керак. Чунки бу ҳолда у координаталар бўйлаб бурчаклар ва тагликларни осонгина тозалайди;

- Датчиклар гуруҳининг мавжудлиги, сезиш, тўқнашувни олдини олиш. Кўпгина замонавий робот чангютгичлари датчиклар гуруҳи билан жиҳозланган бўлиб, улар интеллектуал чангютгич-роботнинг ҳаракатланиш йўналишларини

созлаш ва маневр қобилиятини ошириш имконини беради ва улар x, y, z координаталар бўйлаб, турли мақсадларга ҳаракатланишини таъминлайди. Барча замонавий интеллектуал чангютгич-робот моделларда датчиклар гуруҳи мавжуд. Улар яқин атрофда тўсиқ борлигини билдиради, шундан сўнг робот ўз траектория бўйлаб координатасини ўзгартиради. Аксарият моделлардаги техник кўриш тизим ёки тактил датчиклари корпуснинг каучук бампери остида жойлашган. Улар яқин атрофдаги ҳар қандай объектда тўсиқ мавжудлиги ҳақида сигнал беради, шундан сўнг чангютгич-робот тескари йўналишда ҳаракатлана бошлайди;

- Намли тозалаш режимининг мавжудлиги. Бугунги кунда намли тозалашни амалга оширадиган чангютгич-роботларга талаб катта;

- Масофавий бошқариш. Масофадан бошқариш пултининг мавжудлиги тозалаш жараёнини сезиларли даражада осонлаштиради. Робот симларга ўралашиб қолса ёки бирон бир тўсиқни четлаб ўта олмаса ҳам, фойдаланувчи масофадан бошқариш пулти ёрдамида унинг йўналишини ўзгартириши мумкин. Шуниси эътиборга лойиқки, бугунги кунда масофадан бошқариш пулти асосан премиум-класс қурилмалари билан жиҳозланган;

- Зарядлаш усули. Баъзи робот чангютгичлар қувватни ўз-ўзидан қайтариш ва тиклаш имконини берувчи қулай зарядлаш базасига эга.

Юқоридагиларга асосланиб, кўриб чиқиладиган мақола, айниқса, уйдаги бир нечта фойдаланувчи учун, шунингдек, жисмонан имконияти чекланган одамлар учун долзарб қурилма сифатида қаралади. Мақолада интеллектуал робот-чангютгичнинг илшаш тамойиллари, бошқаришнинг структуравий блок схемаси ва интеллектуал робот-чангютгичнинг қурилмасининг таркибий қисмлари ҳақида маълумотлар келтирилган. Бу кўриб чиқилган интеллектуал робот-чангютгичнинг қурилмасининг таркибий қисмлари ҳақидаги маълумотлар фойдаланувчи учун ва ишлаб чиқарувчи учун кенг имкониятлар яратади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Евгений Юревич. Основы робототехники — М, 2011. 416 с.
2. Чуркин. Материаловедение. Технология конструкционных материалов. ТГУ, Тольятти, 2011. (дата обращения: 11.05.2020)
3. Медведев А. Бессвинцовые технологии монтажной пайки. Что нас ожидает? Электронные компоненты, 2004. №11. с. 29 - 34.
4. Т. В. Asafa, Т.М. Afonja, "Development of a vacuum cleaner robot", Mechanical Engineering Department, Ladoke Akintola University of Technology, P.M.B. 4000, Ogbomoso, Nigeria Received 20 October 2016; revised 9 March 2017; accepted 9 July 2018.
5. S Monika, K. Manjusha, S. Prasad, B. Naresh, "Design and Implementation of Smart Floor Cleaning Robot using Android App", International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)ISSN: 2278-3075, Volume-8 Issue-4S2 March 2019.
6. Explain Algorithm and Flowchart with Examples [Электронный ресурс] URL: <https://www.edrawsoft.com/explain-algorithm-flowchart.html> (дата обращения: 15.05.2020).

GAPLAR TAHLILIDA FOYDALANILADIGAN LISONIY METODLAR

Gofforova Muslima Abdusadir qizi
SamDCHTI, 2- kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola, matn tuzilishi, ularning tahliliy holatlari, hamda gap tahlilida lisoniy metodlarning qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit soʻzlar: lison, lisoniy birliklar, lingvistika, matn, mikromatn, makromatn, stilistika, uslub, uslubshunoslik, publisistik uslub, badiiy uslub, mazmuniy oʻq, kompozitsion butunlik.

Ключевые слова: язык, языковые единицы, языкознание, текст, микротекст, макротекст, стилистика, стиль, методология, публицистический стиль, художественный стиль, ось содержания, композиционное целое.

Key words: the concept of language, linguistic units, linguistics, text, microtext, macrotext, stylistics, style, journalistic style, artistic style, content axis, compositional unity.

KIRISH

Dunyo tez sur'atlarda, jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Shuningdek, til ham. Tilshunoslar tomonidan kundan kunga turli til xususiyatlari topiladi, keng ommaga taqdim etilishidan oldin ushbu lisoniy birliklar o'rganilib, tahlil qilinmoqda. Albatta, barcha izlanishlarning natijasi va samarasi, avvalo, insoniyatning foydasi uchun, uning erkin muloqot qila olishi, ham yozma, ham og'zaki nutqda qisqa va lo'ndalikka shuning bilan birgaaniqlikka erishishi uchun xizma qiladi.

Yuqorida keltirilgan mavzuning tahlili ham aynan hozirgi davr tilshunosligida kattaahamiyat kasb etib borayotgan mavzularning biri hisoblanadi. Avvalo, ko'pchilikka biroz notanish tuyulishi mumkin bo'lgan "lisoniy" so'zining lug'aviy ma'nosini tahlil qilaylik.

Ushbu so'zni ko'pchilik mashhur arbob, turkiy tillarning rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Alisher Navoiyning arab tilida bitilgan "Lison ut-tayr" nomli dostonida eshitgan va uning "Qush tili" deb tarjima qilinishi ham ko'pchilikka sir emas. Biroq, asli arab tiliga mansub bo'lgan ushbu so'zni ma'nosi o'zbek tilidagi "til" so'zidan ko'ra kengroq va salmoqliroqdir.

"lison" so'ziga O'zbek tilining izohli lug'ati kitobida quyidagicha ta'rif berilgan.

Lison- til

-Rusiya xalqi xat va lison o'rganmoqqa bizni taklif qilsa, murodi yomon emasdir, — dedi Furqat. (S. Abdulla, «Mavlono Muqimiy»)

Men Bobur Mirzoga kichikligidan ilm o'rgatdim, lison o'rgatdim. (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»)

Lisoniy- tilga oid, tilga tegishli

Misol uchun: Lisoniy birliklar

Bunday lisoniy vositalar poetik matnda ikki tomonlama yo'naltirilgan bo'lib, birinchidan, go'zallik tushunchasining darajasini orttiradi. (O'TA)

Demak, lisoniy so'zining zamonaviy ma'nosi "tilga oid" degani ekan. Zamonaviy tilshunoslikda esa bu so'z ko'pincha "lingvistik" so'zi bilan almashadi va o'ziga xos va mos ma'no kasb etadi.

Shunday qilib, yuqoridagi mavzumizning nomini "Mikromatnlarning lingvistik xususiyatlari" deb aytsak ham bo'ladi, shunda mavzuning asl mohiyati yanada zamonaviy ahamiyat kasb etadi.

Ko'pchilikka ma'lum bo'lganidek, matn tilshunoslikning alohida sohasi, yo'nalishi sifatida shakllandi va muttasil rivojlanib kelmoqda, yangidan yangi nazariy umumlashmalar qilinmoqda.

METOD VA METODOLOGIYA

Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, matn tushunchasini material jihatdan belgilash va ta'riflashda mutaxassislar o'rtasida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim tilshunoslar faqat yozma shakldagi yahlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblaydilar. Matnning lingvistik tadqiqot ob'yekti sifatida o'rgangan I. R. Galperin esa:

"Matnning ontologik va funksional belgilarini namoyon etadigan yetakchi jihatlardan biri sifatida yozma hujjat tarzida reallashadigan tugallanganlik" ekanini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Uning fikricha, matn yozuvda qayd etilgan nutqiy asardir. Umumiy qarashlardan xulosa qilsak, matn gapdan ko'ra yirikroq hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq ko'rinishidir. Matn hajm belgisiga ko'ra ikkiga ajratiladi: **Minimal matn** (mikromatn) va **maksimal matn** (makromatn). Shuni ham aytib o'tish kerakki, ayrim adabiyotlarda matn hajm jihatidan uchga ajratilgan: kichik, o'rta va katta hajmli matnlar.

Endi fikr yuritaylik, qanday matnlar mikromatnlarga misol bo'la oladi. Bunga javob topish uchun esa biz matnning eng asosiy **lisoniy xususiyatlaridan** biri bo'lgan stilistika, ya'ni uslubshunoslik xarakteriga o'z e'tiborimizni qaratmog'imiz lozim.

Stilistika sohasiga ko'ra, telegramma, ma'lumotnoma, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati hamda vaqtli matbuotda chiqadigan e'lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi va ular publitsistik uslubning birliklari hisoblanadi va o'zida ulkan mazmunni jamlashiga qaramasdan ularning hajmi bir nechta gap yoki jumladan oshmaydi.

Aytaylik, ma'lum bir voqea yuz berdi. Ma'lum bir aholi punktida, meteorit parchalari tushdi. Ommaviy axborot vositalarida ushbu ma'lumotlar turli xil talqinlarga ega bo'lishi mumkin:

Misol uchun:

“Bugun noyob voqea yuz berdi! Murashino qishlog'ining aholisi, erta tongda uyg'onganida, yerga mayda toshlar yoyilganligini ko'rishdi. Endi kichkina qishloq aholisiga asfalt yo'llar kerak emas. Murashinoga sayyohlik turlarini tashkil etishga qaror qilindi. Har bir inson g'ayrioddiy tabiiy hodisaning afzalliklaridan bahramand bo'lishi mumkin!” Yoki, aksincha:

“Bugun Murashino qishlog'ida tosh yog'ingarchilik bo'lib, ushbu hodisahosilgajiddiy zarar yetkazdi va mahalliy aholining uylariga sezilarli darajada ziyon yetdi. Ayni paytda uylarning holatini tiklash bo'yichamuhim chora-tadbirlar ko'rib chiqilmoqda, odamlar o'zlarining odatiy hayotlariga qaytish uchun tartib o'rnatishga harakat qilishmoqda”.

Ushbu mikromatnlar jurnalistik uslubining lug'ati bilan boyigan bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega va hissiyotlarga asoslangan ekspresiv xarakterga ega. Bu shuni anglatadiki, ushbu yo'nalishda ijobiy va salbiy baholarga ega so'zlar mavjud. Bundan tashqari, ma'ruzachi odamlar tomonidan osongina qabul qilinadigan har qanday analog va metaforalardan foydalanadi.

Yoki mikromatnni badiiy uslub tomonidan talqin etiladigan bo'lsa, biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat yaxlit bir butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamlar, bog'lovchilar va sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Masalan:

Talantsiz yozuvchi tovuqqa o'xshaydi. Yong'oqdek tuxum tug'adi-da, qaqog'lab olamni buzadi!(O'.Hoshimov) Yoki:

Sevgi nima? Insoniyat paydo bo'ptiki, shu savol ustida bosh qotiradi. Ammo javob topolmaydi. Agar inson sevgining barcha sir-asrorlarini bilganida edi, uning modeli – qolipini yaratgan bo'lardi. Sevgi hech qanday qolipga sig'magani uchun ham sirli vaabadiydir

(O'.Hoshimov).

TADQIQOT NATIJASI

Yuqorida mikromatn deb atash mumkin bo'lgan ikkita parchani keltirildi. Tarkiblanish jihatidan birinchisi ikkita gapdan tuzilgan. Mazmunni birlashtirishga xizmat qiladigan hech qanday sarlavha berilmagan. Bu vazifa tovuq va u bilan bog'liq so'zlarga yuklatilgan (tovuqtuxum-qaqog'lamoq). Iste'dodsiz yozuvchi birinchi gapda tovuqqa o'xshatilmoqda. Ikkinchi gap esa bu o'xshatishni to'laroq izohlash yoki

sababini ko'rsatish uchun keltirilgan. Ya'ni, iste'dodsiz yozuvchi tovuqqa o'xshatildi, ammo tovuqning qaysi sifat va xususiyatiga? Muallif munosabati ikkinchi gapda tugal ifodasini topgan. Matn butunligini ta'minlashda tovuq-tuxumqaqog'lamoq so'zlari **mazmuniy o'q** vazifasini bajarmoqda. Keyingi kichik hajmli matnni oladigan bo'lsak, ushbu matnning ichki mazmuni savol shaklidagi sarlavha orqali oshkor qilingan. Matn 4 ta gapdan tashkil topgan. Butunlikni ta'minlayotgan vositalar sirasiga izchil va tugal ohang, ammo bog'lovchisi, agar bog'lovchisi va matnning **mazmuniy o'q**ini tashkil qiluvchi sevgi so'zi kiradi. Demak, masala savol shaklida qo'yilyapti va unga matn orqali javob berilyapti. Ya'ni, Sevgi nima? Sevgi - sirli vaabadiy tushuncha.

O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi Bitiklar"turkumiga kiritilgan **Sadoqat** deb nomlanuvchi lavhada boshqacharoq holatni ko'rishimiz mumkin.

Qadim zamonda bir yurt bor ekan. Xalqi mehnatkash, podshosi odil, hayoti tinch, turmushi farovon ekan. Boshqa bir mamlakatning shohi g'ayrligi kelib, o'sha yurtni bosib olmoqchi bo'пти. Biroq daf'atan hujum qilishga jur'at etolmay, o'sha yurtga o'z xufiyasini yuboribdi. «Qanday qilib bo'lmasin, podshoning ishonchiga kirasan, yurtning sir-asrorini bilib kelasan» debdi.

Xufiya o'sha yurtga boribdi. Vaqti kelib, chindan ham podshoning ishonchiga kiribdi, mulozimlaridan birigaaylanibdi. So'ng, o'z mamlakatiga qaytib borib, shohiga «Bu yurtni olib bo'lmaydi!» debdi. «Nima, qal'asi mustahkammi?»-deb so'rabdi shoh. «Gap qal'ada emas»,debdi xufiya. «Bo'lmasa gap nimada o'zi?»-debdi shoh darg'azab bo'lib. Shunda xufiya o'zi guvoh bo'lgan bir voqeani aytib beribdi:

-Bir kuni o'sha podsho shikorga chiqdi. Yonida qirq nafar yigiti ham bor edi. Men ham ularga qo'shildim. Podsho uchqur bir kiyik ortidan ot qo'ydi. Hammamiz unga ergashdik. Kiyik cho'qqiga qarab yugurdi. Podsho ham uning ortidan ot surib ketaveradi. Bir mahal kiyik cho'qqi tepasiga etganda tubsiz dara ustidan sakradi-da, narigi cho'qqiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Podsho noiloj jilov tortib, ortidan tushdi. Terlab ketgan edi. Yonidan ro'molcha chiqarib, peshonasini artmoqchi bo'lgan edi, nogahon shamol kelib, ro'molchani daraga uchirib ketdi. SHunda qirq yigitning hammasi o'zini tubsiz jarlikka otdi. Qanchasi parcha-parcha bo'lib ketdi. Qanchasi mayib-majruh bo'ldi. Omon qolgan bir yigit ro'molchani olib chiqib, podshoga topshirdi. U yurtda bunaqa yigitlar ko'p. Bunaqa yurtning engib bo'lmaydi...

Mazkur matn sadoqat haqida, Vatanga, yurtga vafodorlik haqida bitilgan kichik hajmli asardir. Biz matnning nima haqda ekanligini dastlab sarlavhadan bilib olamiz. Bu so'z mikromatnning ichida boshqa qaytarilmaydi, lekin sarlavha sifatida kelgan shu so'z matnning ham **motivatsion yaxlitligini** ham **kompozitsion butunligini** ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shunga ko'ra yozuvchi **mazmuniy o'q**ni nom darajasiga ko'tarish orqali maqsadiga to'la erishgan deyishimiz mumkin. Ammo, shuni aytib o'tish kerakki, hamma nomlar ham bunday vazifani bajaravermaydi.

MUHOKAMA

Ba'zi mutaxassislar ba'zan bittagina gap ham mikromatn tushunchasiga teng kelishi mumkin degan fikrni ilgari surishgan. Masalan:

“Bahor...”

Bu jumlada «ona tabiatning jonlanishi», «maysalarning asta bosh ko'tarishi, ya'ni hammayoqning ko'm-ko'k tusga kirishi», «atrof-muhitning go'zallikka burkanishi», “bahoriy iforning yoyilishi” kabi yashirin mazmun mavjuddir. Lekin bu tipdagi ko'rinishlarni tom ma'noda matn deb atash mumkin emas. Chunki matn struktural jihatdan gapdan ko'rayirikroq sintaktik butunlik. Demak, u gaplardan tashkil topishi kerak. Yashirin mazmun sifatida havola qilinayotgan ma'nolar so'zning ma'no strukturasi bilan bog'liq. Mazkur gap o'zidan keyin keladigan izohlovchi yoki kengaytiruvchi gaplar bilan bir butunlik hosil qilgandagina matn deyish til jihatidan to'g'ri bo'ladi. Agar yashirin mazmunga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, istalgan so'zni matn deyishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, ona, vatan, muhabbat kabi so'zlarni oladigan bo'lsak, bu so'zlarning ham moddiylashmagan yashirin ma'nolari mavjud va ular mazkur so'zlarni talaffuz qilishimiz bilanoq, ko'z oldimizda u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mikromatn lingvistika va uslubshunoslikda ulkan ahamiyatga ega soha bo'lib, uning asosiy lisoniy xususiyatlaridan biri insonlarga axborotlarni qisqa va lo'nda, shuningdek ixcham hajmda yetkazishdan iboratdir. Albatta, matnning yozma va yoki og'zaki ekanligi, qaysi uslubda bo'lishligi, shuning bilan birga matndagi so'zlarning estetik jihati, badiiy bo'yoqdorlik darajasi ulkan ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Galperin I.R. Tekst kak ob'ekt lingvisticheskogo issledovaniya. M., 1981.
2. O'zbek tili stilistikasi, T., 1983; Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo., Nutqmadaniyati va uslubiyatasoslari. T., 1992.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati 1981.
4. Ўткир Ҳошимов. Дафтар хошиясидаги битиклар. –Т.: Шарк, 2005.
5. To'xsonov M. Mikromatn va uning kommunikativ yahlitligi // O'zbek tili va adabiyoti, 1990, 5 - son, 66 - 69 - betlar.
6. Yo'ldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol.fan.dokt...dis.- Toshkent, 2009.3

RAQAMLI AXBOROTLARNI TALIM JARAYONIDA QO'LLASH

Yoqubjon Qosimov Tojiboevich

Namangan viloyati Kosonsoy tumani

1-son kasb-hunar maktabi Raqamli axborotlarni

kompyuterda qayta ishlash o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Maqolada raqamli axborotlar, bulutli texnologiyalar, ta'limda raqamli axborotlardan foydalanish, raqamli axborotni ta'lim tizimi vositalari, raqamli axborotni ustunliklari, narsalar interneti (Internet of Things, IoT), kengaytirilgan haqiqat (AR), virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR) haqida tushuncha berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli axborot, ta'limda raqamli axborot, narsalar interneti (Internet of Things, IoT); kengaytirilgan haqiqat (AR); virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR)

KIRISH: Bugungi kunda raqamli axborotlar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta axamyatga ega. Biz ilgari ta'lim dasturlarini an'anaviy usuli ya'ni ma'ruzani yirik xajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. Xozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan. Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu axborotlar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Raqamli axborotni o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu

– xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinisdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni. masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni

yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. Biz bu maqolada ta'lim tizimida raqamlashtirishni o'rniga to'xtalib o'tamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Raqamli axborotlar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalari, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli axborotlar qo'llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi.

Demak, raqamli ta'limda:- xohlagan joyida va xohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega;

- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;

- ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;

- vaqt va mablag` sarfini keskin kamaytiradi;

-“raqamli dunyo”da yo`qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo`lishgi kabilar. Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta'lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o`stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug`iladi. Bu esa o`z navbatida ta'lim beruvchilarni o`z ustida ko`proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to'lovchilar va soliq organlari o`rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Raqamli axborotlarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli axborotlar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Masalan, sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg'or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko'rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasida virtual o'quv muhiti va masofaviy ta'limning ta'minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo'lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo'ladi, ularni ta'minlovchi institutlar

mas'uliyatini oshiradi va sun'iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo'ladi. Katta ma'lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin.

Quyida raqamli axborotlar bazilariga to'xtalib o'tamiz: bulutili texnologiyalar –internet foydalanuvchisiga on-layn xizmat sifatida kompyuter resurslarini taqdim etiladigan ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridir.

Raqamli axborotlar - narsalar interneti (Internet of Things, IoT). Raqamli axborotga asoslangan asosiy texnologiyalardan biri bu narsalar internetidir. Ko'pgina maishiy texnikaning elektr tarmog'iga ulanganligi odatiy holdir, lekin asta-sekin jismoniy dunyoning tobora ko'proq ob'ektlari Internetga ulanadi, bu esa ma'lumot to'plash va hatto ushbu ob'ektlarni masofadan turib boshqarish imkonini beradi. Darhaqiqat, Internetda ob'ekt va tashqi dunyoning turli parametrlarini o'z ichiga olgan va Internet orqali ob'ektni boshqarish imkonini beruvchi jismoniy ob'ektning virtual nusxasi paydo bo'ladi. Narsalar internetiga misol qilib, kinoteatrdagi proyektor kabi qurilma texnik qo'llab-quvvatlash xizmatiga aniqlangan nosozlik va rejadan tashqari ta'mirlash doirasida almashtirilishi kerak bo'lgan ehtiyot qismlar ro'yxati haqida signal yuboradi. .

Raqamli axborotlar- kengaytirilgan haqiqat (AR). Eng istiqbolli - bu virtual dunyodan real dunyoga ob'ektlarni qo'shish imkonini beruvchi to'ldirilgan reallik texnologiyasi. Tasavvur qiling-a, ko'chada yurib, atrofingizdagi narsalar va odamlar haqida qo'shimcha ma'lumotni ko'rasiz. Kengaytirilgan haqiqat misollari allaqachon mavjud va faol qo'llanilmoqda, ba'zi istiroxat bog'larida siz jismoniy dunyodagi ob'ekt va virtual dunyo o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatadigan belgilarni allaqachon ko'rishingiz mumkin. To'ldirilgan reallik elementlariga ega o'yinlar faol tarqalmoqda, kiyim-kechak sotiladigan do'konlarda virtual oyna va jihozlash xonalari mavjud, to'ldirilgan reallik allaqachon avtomobillarda sinovdan o'tkazilmoqda. Shu bilan birga, to'ldirilgan reallik texnologiyalaridan faol foydalanish yo'lida hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar ham mavjud. Masalan, geopozitsiyani aniqlash vositalarining aniqligi hali ham etarli emas yoki jismoniy dunyo ob'ektlarini ularning virtual nusxalari bilan bog'lash uchun kompyuterda ko'rish texnologiyalari nomukammal. Biroq, ishonch bilan aytish mumkinki, yaqin kelajakda ushbu texnologiya yutuq bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

XULOSA

Raqamli axborotlar- virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR). Insonning virtual haqiqatda bo'lishiga imkon beruvchi texnik qurilmalarning paydo bo'lishi ushbu axborotlarni ko'ngilochar sohada talabga aylantirdi. Virtual haqiqatning dubulg'alari va kostyumlari, ixtisoslashtirilgan xonalar sizga noma'lum dunyoga kirishga imkon beradi, bu sizning barcha harakatlaringiz virtual olamdan javob berish uchun dasturlashtirilgan, bu sizga o'zingizni 100% ga cho'mish imkonini beradi. Ta'lim

sohasida VR o'quvchilarning bilim olish uslubini o'zgartiradi. Sinf xonalarida VR dan foydalanish o'quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o'rganishga yordam beradi. Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli axborotlarni turli sohalarga nafaqat ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Грегг Б. «Производительность систем: Enterprise и Cloud», 2014.
2. https://koptelov.info/publikatsii/digital_technology
3. Bakiyeva, F., & Mirzahmedova, N. (2019). EFFICIENCY OF ONLINE TRAINING. *Theoretical & Applied Science*, (11), 56-58.
4. Bakiyeva, F. R., Primkulova, A. A., & Mirzahmedova, N. D. (2020). Smart And Development Of Modern Education.
5. Мирзахмедова, Н. Д. (2015). Применение макросов в программе Power Point для создания тестовых заданий. *Наука, техника и образование*, (4 (10)), 180-182.
6. Абдурахманова, Ш. А. (2017). Развитие педагогической науки в Республике Узбекистан. *Молодой ученый*, (1), 428-430.
7. Sh.A.Abduraxmanova, & X. Jo'rayev. (2022). MODERN WEB TECHNOLOGIES USED IN PROFESSIONAL EDUCATION. *Conference Zone*, 178–179. Retrieved from <http://conferencezone.org/index.php/cz/article/view/248>
8. Shaxnoza Abduhakimovna Abduraxmanova. (2022). INDIVIDUALIZATION OF PROFESSIONAL EDUCATION PROCESS ON THE BASIS OF DIGITAL TECHNOLOGIES. *World Bulletin of Social Sciences*, 8, 65-67. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/721>
9. Shahnoza, A. (2019). ABOUT ONE ASPECT OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'INTELLECTUAL SKILLS USING MULTIMEDIA INTERACTIVE ESTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
10. Абдурахманова, Ш. А. (2018). ОБ ОДНОМ АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ УМЕНИЙ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ. In *АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 12-14).

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI NORMATIV HUQUQIY MANBALAR

Erejepova Ulmeken Duysenova

Yuridika fakulteti, Huquq va biznes ixtisosligi

2-kurs magistranti

Annotatsiya. O‘zbekistonda tadbirkorlik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mujassamlashgan, yaqqol namoyon bo‘ladigan hamda tez rivojlanib borayotgan va harakatchan sohasiga aylanib bormoqda. Mamlakatda bozor munosabatlarning shakllanishi va iqtisodiy taraqqiyotida uning o‘rni va roli tobora sezilarli tus olib bormoqda. Shu jihatdan, respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish asoslidir. Ushbu maqolaning maqsadi ham tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy manbalarni tahlil qilish hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi Konstituciyasi, tadbirkorlik, normativ-huquqiy hujjatlar, manbalar.

Tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi mavjud muammolarni hal qilishda va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida katta rol o‘ynaydi. U ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratib, aholini ish bilan ta‘minlash va ishsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda ham, O‘zbekistonda ham har yili yaratilayotgan yangi ish o‘rinlarining yarmidan ortig‘i kichik va xususiy tadbirkorlikka to‘g‘ri keladi. Demak, tadbirkorlik aholining ish bilan bandligi, mehnat va iqtisodiy faolligining o‘sishi va buning natijasida uning daromadlarining oshishiga katta hissa qo‘shadi. Bu jarayonning ikki oqibatini e‘tiborga olish lozim: bir tomondan, aholining moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarining o‘sishi, kengayishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularni to‘laroq qondirish imkoniyatlarining yaratilishidir. Bu pirovard natijada aholi hayotini yaxshilash, turmush darajasini ko‘tarish, farovonligini oshirishni ta‘minlaydi. Tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uning mazkur sohadagi roli ortib boradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida (2000-yil 25-may) “tadbirkorlik” va “tadbirkor” tushunchalariga quyidagicha ta‘riflar berilgan: “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat”. “Tadbirkor - yuridik shaxs tashkil etgan holda ham, etmagan holda ham tadbirkorlik faoliyati bilan doimiy asosda shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs”.[2:25].

Ma'lumki, tadbirkorlik jamiyatda amal qiladigan qonunlar doirasida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Tadbirkorlik faoliyati amaldagi umumiy va maxsus me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solib turiladi. Har bir tadbirkor o'z faoliyati sohasiga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ulaming talablari va ular yaratadigan imkoniyatlarni yaxshi bilishi lozim. Shundagina u o'zining qonuniy huquqlarini bilib oladi, huquqlari va manfaatlarini himoya qila oladi, o'z majburiyatlarini maqbul darajada bajaradi va turli qonunbuzarliklarga yo'l qo'ymaydi

Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur huquqiy muhitni yaratish yagona konsepsiya asosidagi qonunchilik va me'yoriy bazani yaratish va doimo takomillashtirib borish tizimining mavjudligini taqozo etadi. Bunday tizim quyidagilarni nazarda tutadi:[3:69].

- qonunchilikda xususiy biznesning erkinligi, himoyasi va qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydigan aniq huquqiy kafolatlarni belgilash';

- mavjud me'yoriy-huquqiy bazani yangi qonunlarga muvo- fiqlashtirish;

- xususiy mulkni hech kim olib qo'ya olmaydigan huquqini konsti- tutsiya orqali mustahkamlash;

-xususiy korxonalarining mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yuri- tishini, xususiy mulk himoyasi va daxlsizligini kafolatlash;

-qonun hujjatlarini qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari, shuningdek, tadbirkorlarning manfaatlarini ifodalaydigan nodavlat tashkilotlari orqali amalga oshirish mexanizmini shakllantirish;

-hududiy, tarmoq, boshqarish va hukumat organlarining, jamoat tashkilotlarining o'zaro kelishib faoliyat ko'rsatishi va boshqalar.

Tadbirkorlikning me'yoriy-huquqiy bazasini quyidagilar ta'min- laydi:[5:162].

- qonun chiqaruvchi organlar;

-hukumat organlari: vazirliklar, davlat qo'mitalari va muassasalari;

-qonun hujjatlarining ayrim qoidalarini aniqlashtiradigan davlat boshqaruv organlari va hokimliklar;

- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat markaziy organlari;- tadbirkorlik doiralari manfaatlarini ifodalovchi nodavlat tashkilotlari, shu jumladan, tadbirkorlar uyushmalari;

-qonun hujjatlarini qo'llash obyektlari hisoblangan va teskari aloqa mexanizmini ta'minlaydigan tadbirkorlik tuzilmalari;

- respublikada qonun hujjatlariga rioya qilinishi va ularning bir xil talqin etilishini nazorat qiladigan organlar;

-qonun hujjatlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlovchi, qonun hujjatlarini ekspertiza qiluvchi, ularni amalda qo'llash samaradorligini oldindan aytish va monitoringi bilan shug'ullanuvchi ilmiy muassasalar (xorijiy ekspertlar ham kiradi);

-makroiqtisodiyotning strategik va innovatsiya yo'nalishlarini belgilovchi ijtimoiy-institutsional tashkilotlar va guruhlar.[1:12].

Tadbirkorlikning me'yoriy-huquqiy asoslarini qonunlar va qonunosti hujjatlar tashkil qiladi. Ularni ikki guruhga ajratish mumkin: umumiy va maxsus.

Umumiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.
6. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning me'yoriy hujjatlari.
7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hisoblanadi va ular qonun hujjatlari majmuyini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis qarorlari qonunlar hisoblanadi. Qolganlari qonunosti hujjatlardir. O'zbekistonda uning Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Maxsus me'yoriy-huquqiy hujjatlar bevosita tadbirkorlik sohasiga tegishli bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rasmiylashtirish, amalga oshirish, rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash va boshqa masalalarni tartibga soladi. Ularga tadbirkorlikka oid qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari kiradi.

Xulosa. Tadbirkorlik faoliyati mamlakatimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Shu bois, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatini yana da takomillashtirish asosiy vazifadir. Shu sababdan, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilish bu faoliyatni yana da qo'llab quvvatlashga yordam beradi. Yuqorida mazkur faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy manbalar keltirib o'tildi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari: me'yoriy hujjatlar to'plami. 1- kitob. (Tuzuvchi S. P. Sizikov). - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999.
2. Gulomov S. S. Tadbirkorlik va kichik biznes. - T.: Sharq, 2002.
3. Hamroyev H. R. Tadbirkorlik asoslari. O'quv-uslubiy majmuasi. Buxoro, BDU, 2007
4. Mirsaidov M. S. Tadbirkorlik va kichik biznes. - T.: Sharq, 2002.
5. Muhammedov M. M. va boshqalar. Tadbirkorlik iqtisodiyotining asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand, 1998.
6. Kretoy S. M. Tadbirkorlik mohiyati va istiqbollari. - T.; O'zbekiston, 2002.
7. Qosimova M.S. va boshqalar. Tadbirkorlik asoslari. Namunaviy o'quv dasturi. - T.: TDIU, 2006.
8. Qosimova M. S. va boshqalar. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: rivojlantirish, muammolar va yechimlar (o'quv qo'llanma). - T.: TDIU, 2007.

**FUQAROLIK HUQUQIDA SHARTNOMA VA BITIM INSTITUTI:
QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL**

Tulepova Zulfiya Urazbaevna
2-kurs magistranti, QDU

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik huquqida shartnoma va bitim tushunchalari, ularning turlari, tuzilish shartlari yoritib berilgan. Shuningdek, fuqarolik huquqidagi shartnoma va bitim institutiga qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil natijasi shuni kòrsatdi, shartnoma va bitim tushunchalari bir-biri bilan uzviy bogʻliqdir. Ularning turlari va tuzilish shartlarida keskin farqlarni kòrsak bòladi.

Kalit sòzlar: Fuqarolik kodeksi, fuqarolik huquqi, shartnoma, bitim, turlar, tuzilish, tushuncha.

Erkin bozor munosabatlariga oʻtib borilayotgan bir davrda ijtimoiy- iqtisodiy tizimni fuqarolik huquqi subyektlarining huquqiy holati va ular oʻrtasida vujudga keladigan munosabatlar tabiatining oʻziga xos tarzda oʻzgarishi va yangicha mazmun bilan boyimoqda. Bu esa, oʻz navbatida, fuqarolik huquqi subyektlari oʻrtasida vujudga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonunlarni qabul qilish va ularni muntazam takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Shu bois, ushbu maqolaning maqsadi fuqarolik huquqida yuzaga keluvchi shartnoma va bitim tushunchalari, ularning tuzilishi va turlarini yoritib berishga qaratilgan. Shuningdek, maqola shu ikki tushunchaning qiyosiy-huquqiy tahliliga asoslangan. Shu bois, fuqarolik huquqida shartnoma va bitim institutiga bogʻliq m`lumotlarga asoslanib, ularni quyidagicha tahlil qildik:

Kategoriyalari	Shartnoma	Bitim
Tushunchasi	Shartnoma ikki yoki undan ortiq shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, oʻzgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan oʻzaro kelishuvdir	Bitimlar deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, oʻzgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakat- larga aytiladi (FKning 101-moddasi).
Tuzilish shartlari	Shartno- maning umumiy tartibda tuzilishi ikki davr bilan belgilanadi. Birinchi davr — shartnoma tuzishga taklif qilish davri, bu — oferta, shartnoma tuzishga taklif qiluvchi esa, offerent, deb ataladi. Ikkinchi davr — shartnoma tuzish	Bitimlar tushunchasi uchun quyidagi shartlar muhimdir: a) bitim tuzuvchi shaxs fuqarolik huquqining subyekti hisoblanadi; b) muayyan bitimni tuzuvchi shaxsda bu bitimni tuzish erki boʻlishi va bu erk maʼlum

	to'g'risidagi taklifni qabul qilish davri bu — aksept, taklifni qabul qiluvchi — akseptant deb aytiladi.	huquqiy oqibatlar tug'dirishga qaratilgan bo'Mishi lozim;d) shaxsning erki muayyan yuridik fakt hisoblangan harakatda o'zining tashqi ifodasini topishi, ya'ni maMum shaklda izhor qilingan bo'Mishi kerak.
Turlari	Bir tomonlama shartnomada ishtirok etayotgan taraflarning birida faqat huquq bo'lib, hech qanday majburiyat bo'lmaydi, ikkinchi tarafda esa, faqat majburiyat bo'ladi.	Bir tomonlama bitimda faqat bir tomonning erki ifodalanadi, huquq va majburiyat faqat bir tomonning irodasi bo'yicha vujudga keladi, o'zgaradi yoki bekor bo'ladi.
	Ikki tomonlama shartnomada esa, har ikki taraf ham mustaqil huquq va majburiyatga ega bo'ladi.	Ikki tomonlama bitimlar har ikki tomonning erkiga muvofiq tuziladi. Bunday bitimlar shartnomalardir.
	Ko'p tomonlama shartnomalar ham mavjud bo'lib, unda taraflar uch va undan ortiq bo'Madi. Bunday shartlarda bir paytning o'zida har bir farafda muayyan huquq va majburiyatlar bo'lishi xarakterlidir.	Ko'p tomonlama bitimlar uch va undan ortiq shaxslarning erklari ifodalanib tuziladi.
	Konsensual shartnomalar huquq va majburiyatlar taraflarning kelishuvlari asosida qonun talab qilgan shaklda rasmiylashtirgan zahoti tuzilgan hisoblanadi.	Konsensual bitim deb huquq va majburiyatlarni o'zaro kelishish va bunday kelishuvni lozim tartibda rasmiylashtirish paytida vujudga keltiradigan bitimga aytiladi.
	Real shartnomalar bo'yicha huquq va majburiyatlar taraflar o'zaro kelishgan va shartnoma narsasi ashyo yoki pul topshirilgan paytdan vujudga keladi.	Real bitim deb o'zaro kelishuvga muvofiq ashyolar yoki pulni topshirish paytida huquq va majburiyatni vujudga keltiradigan bitimga aytiladi

Tahlildan kòrinib turganidek, shartnoma va bitim tushunchalari bir-biri bilan bog'liq tushunchalardir. Ammo, ular tuzilishi va turlari bòyicha bir-birlaridan farq qiladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma'lumoarga asoslanib shuni aytib òtish lozimki, fuqarolik huquqida shartnoma va bitim tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Tahlil

natijalari shuni kòrsatdi, shartnoma va bitim tushunchalari bir-biri bilan bogliq tushunchalardir. Ammo, ular tuzilishi va turlari bòyicha bir-birlaridan farq qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. —T.: Adolat,2007.
2. Rahmonqulov H. Fuqarolik huquqining subyektlari. O‘quv qo‘llanma.— T.: «O‘zbekiston», 2008.
3. Ro‘ziyev R.J. Fuqarolik huquqi — T.: «Falsafa va huquq instituti» 2005.
4. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. —T: TDYUI, 2009.
5. Zokirov I.B., Oqyulov O.t,Topildiyev V.R. va boshqalar. Shartnoma huquqi. - T.,TDYUI, 2006.

NON-ALTERNATIVE LEXICON IN THE VOCABULARY OF THE LANGUAGE AND ITS LINGUISTIC AND EXTRALINGUISTIC BASIS

Shamshetova Biybiayim Janibekovna

A second year master of Linguistics(English language), KSU

1. A. Ashtekar and P. Singh, Class. Quant. Grav. 28, 213001 (2011) [arXiv:1108.0893 [gr-qc]].
2. L. McAllister and E. Silverstein, Gen. Rel. Grav. 40, 565 (2008) [arXiv:0710.2951 [hep-th]].

3. M. Novello and S. E. Perez Bergliaffa, Phys. Rep. 463, 127 (2008) [arXiv:0802.1634 [astro-ph]].
4. M. Born and L. Infeld, Proc. Roy. Soc. London. A 144, 425 (1934).
5. S. Deser and G. W. Gibbons, Class. Quant. Grav. 15, L35 (1998) [arXiv:hep-th/9803049].
6. M. Vañados and P. G. Ferreira, Phys. Rev. Lett. 105, 011101 (2010) [arXiv:1006.1769 [astro-ph.CO]]. [7] D. Comelli, Phys. Rev. D 72, 064018 (2005).
7. ХАКИМОВ, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 30-36.
8. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 11(1), 71-79.
9. ЮВМИТОВ, А. С., & ХАКИМОВ, С. Р. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЗДАНИЯ. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10(2), 14.

BOSHQARUV TIZIMIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZIMI

Akramova A.K.

*Mustaqil izlanuvchi, Yashnobod tumani 92-sonli
Davlat maktabgacha ta'lim rahbari*

Annotatsiya. O'qituvchilik faoliyatida psixologik himoya mexonizimidan asosli foydalanish, bu orqali o'quvchi yoshlarni bilim olishlarini samarali taminlash.

Kalit so'z: boshqaruv, psixologik himoya, mexanizim, adekvat, noadekvat.

Аннотация. Разумное использование механизма психологической защиты в обучении, тем самым эффективно обеспечивающего воспитание студентов.

Ключевые слова: управление, психологическая защита, механизм, адекватность, неадекватность.

Abstract. Reasonable use of the mechanism of psychological defense in training, thereby effectively ensuring the education of students.

Key words: management, psychological protection, mechanism, adequate, inadequate,

Psixologik himoyani turli omillarning ta'siri asosida ifodalanishi alohida tadqiq etilgan. Ontogenetik jihatdan birinchi navbatda himoyaning perseptiv jarayonlarga tayanadigan: hissiyot, diqqat, idrok, bunda bazaviy komponent hisoblanganligi uchun idrok etilayotgan axborotning destruktivligini yoki konstruktivligini belgilash funksional jihatda kechadi. R.Granovskaya , L.Grebennikov , V.Kamenskaya , I.Nikolskaya , Ye.Romanova kabi olimlarning tadqiqotlarida psixologik himoyaning me'yoriy-axloqiy, madaniy, ijtimoiy, maishiy darajalarda namoyon bo'lishini konstruktiv deb ko'rsatganlar. Bu yondashuv "MEN-siyimo/obraz"ini qabul qilingan me'yorlarga asoslanib, dunyoni idrok etishni ta'minlaydi. Ko'rsatib o'tishicha, bu tarzdagi psixologik himoya sub'ektni shaxslararo munosabatlarda nizoga kirishmasligini ta'minlab, pozitiv "MEN obrazi"ni yaratishda ijtimoiy psixologik ahamiyat kasb etadi . Pozitiv "MEN obrazi" "inson-inson", "inson-jamoa", "inson-guruh", "inson-muhit" singari munosabatlar dinamikasini ijobiy barqaror kechishini ta'minlovchi psixologik omil sanaladi. Agarda, individni psixologik himoyadan foydalanishini shaxslararo munosabatlar tizimida tahlil qilsak, bunda Ye.Dotsenko tomonidan individning himoyaviy xulqini psixologik baholash uchun tavsiya etgan mezonlari e'tiborga molik . Bunda:

adekvatli himoya xulqi (qayg'urishning manbasini belgilab, uning tahdid darajasiga javob sifatida namoyon etiladi);

samarali himoya xulqi (xavf va tahdidni zararsizlantirib, himoya maqsadiga erishish uchun javob sifatida namoyon etiladi);

maxsus himoya xulqi (vujudga kelgan psixologik tazyiq ko'rsatuvchi xavfning mazmuni va mohiyatiga javob sifatida namoyon etiladi);

konstruktiv himoya xulqi (shaxsiy kamolotni, ijtimoiy munosabatlarni, ijobiy rivojlanishini, shuningdek, faoliyat samaradorligini ta'minlash uchun namoyon etiladi).

Psixologik himoyadan foydalanish sub'ektni psixologik madaniyatiga, aniqrog'i psixologik madaniyatni o'zlashtirilganlik darajasiga bog'liqdir. I.Sladkovaning tadqiqotlarida, psixologik madaniyatni o'zaro munosabatlar doirasida namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tilgan bo'lsada, V.Aristovanning ilmiy tadqiqotida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida psixologik madaniyat, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish va o'quvchilarni fanga bo'lgan munosabatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Individual-shaxsiy vaziyatlar pedagogik jarayonning dinamikasiga ta'sir ko'rsatadi. Agarda, tanlangan psixologik himoya usuli destruktiv mazmun kasb etsa, pedagogik jarayon dinamikasida so'nish hodisasi kuzatiladi. Tanlangan psixologik usuli konstruktiv kasb etsa, pedagogik jarayon dinamikasida o'sish hodisasi kuzatiladi. Mazkur ijtimoiy-psixologik holat ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, o'z darida o'qituvchi (pedagog) psixologiyasini o'rgangan F.Gonobolin "Ularga (yoshlarga-S.S.) bo'lgan muhabbat pedagogik kasbni tanlash uchun qo'shimcha motiv hisoblanadi" deya munosabat bildirgan. O'qituvchi, o'quvchilarga predmetlarni bir biri bilan qiyoslashni, hodisalarni o'xshashlik va ulardagi umumiylikni belgilab olishni o'rgatadi.

Barcha psixologik himoya turlari mazmuni jihatidan (ontogenezda) bazaviy va ikkilamchi kabilarga ajratilib, ikkilamchi himoya bazaviy himoya turlari asosida tuzilib, uni kombinatsiyaviy ifodasi hisoblanadi. Ular, tuzilishi jihatidan, ya'ni psixologik komponentlar (emotsiyaviy, kognitiv va b.) ishtiroki darajasiga sodda va oliy tartibli kabilarga ajratiladi. Ularning barchasini birlashtiruvchi psixologik maqsad, aniq nuqta, bu psixologik diskomfortni (behalovatlikni) bartaraf etish hisoblanadi. F.Bassinni ta'biri bilan aytganda, "faqatgina ularning ayrimlari "tozalagich mohiyati"dan o'tgach (ya'ni, amaliyotda qo'llanilgan so'ng natija bergach – S.S.), sub'ekt uchun mohiyat kasb etadi" va xulq namunasida ifodalanadi. Mazkur ijtimoiy-psixologik fenomen, psixologik madaniyati yuqori bo'lganlarda konstruktiv va psixologik madaniyati nisbatan past bo'lganlarda destruktiv tarzda kechishi kuzatiladi. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining shaxsida namoyon bo'ladigan psixologik himoyani turli shakllarini kuzatish mumkin. Ularni destruktiv shaklini kuzatganda, psixologga murojaat etishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik faoliyat tizimida psixologik himoyadan vosita sifatida foydalanishda bir qator prinsiplarga amal qilish tavsiya etiladi:

psixologik himoya vosita sifatida ta'lim-tarbiyaning maqsadiga zid bo'lmasligi;

psixologik himoya vosita sifatida yosh, gender, etnopsixologik manfaatlar hamda qadriyatlarga zid bo‘lmasligi va h.k.

Xullas, pedagogik faoliyatda xulq regulyasiyasini ta’minlashda psixologik himoya ijtimoiy-psixologik ahamiyatdorligi jihatidan:

birinchidan, pedagogik nizolarni kelib chiqmasligini, pedagog shaxsini funksional holatini ichki va tashqi salbiy qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga tushmasligini;

ikkinchidan, pedagogik jarayonni ijobiy barqaror kechishini ta’minlab, ta’lim oluchilarni psixologik sog‘lig‘ini ta’minlashni;

uchinchidan, pedagogik faoliyat davomida kasbiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, jamoada ijobiy ijtimoiy-psixologik holatni ta’minlaydi.

Psixologik himoyani inson kamolotida konstruktiv yoki destruktiv mazmun kasb etishini inobatga olib, uni destruktiv mazmunini ta’minlovchi komponentlarini korreksiyasi masalasiga e’tibor qaratish lozim. Buning uchun ta’lim tizimida amaliy psixologik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi psixologlar uchun mo‘ljallangan “Destruktiv xulq korreksiyasi” nomli uslubiy qo‘llanma tayyorlab, korreksiyaviy trening dasturini tayyorlash tavsiya etiladi.

Адабиётлар:

1. Бассин Ф. В. Сознание, «бессознательное» и болезнь // Вопросы философии. 1971. № 9. - С. 90-102.
2. Киршбаум Э.И., Еремеева А. И. Психологическая защита. - М.: Смысл, 2000. – С. 81.
3. Крот А. Ф. Механизмы психологической защиты / Учебно-методическое пособие. – Минск: БГМУ, 2015. – С. 5.
4. Психология. Словарь / Под ред. Петровского А. В., Ярошевского М. Г. - М.: Политиздат, 1990. – С. 121..
5. Рубинштейн С. Л. Бытие и сознание. - М.: Академия наук, 1957. – С.231.
6. Самаров Р. Ахборотнинг психологик хавфсизлигини таъминлаш механизми (услубий қўлланма). – Тошкент: Университет, 2015. 66–бет.
7. Самаров Р., Садриддинов С. Психика ва онг: антропологик талқиннинг назарий–психологик баёни // Psixologiya 4 (28) – сон. 2017. 20-25– бетлар. – Бухоро: БухДУ.

ANALYSIS OF WASTEWATER AERATION METHODS IN AERATION TANKS

Murtazayev F.A.

*“Water supply, sewerage and protect water resources”
department, SamSAandCEU*

Mirzayev M.

*“Water supply, sewerage and protect water resources”
department, SamSAandCEU*

Annotation: The quality of biological purification largely depends on the operation of aeration systems. This article presents an analysis of the search for the most economical and effective variant of wastewater aeration methods in aeration tanks, provides brief characteristics and conditions of use, and discusses the advantages and disadvantages of mechanical, pneumatic and jet aerators.

Key words: wastewater treatment, aeration system, aeration tank.

Aeration is the process of saturation of a liquid with air through aerators, by means of its forced supply with the help of compressor blowers. Aeration is very widely used in many sectors of the national economy. But most actively, it is used in water treatment and wastewater treatment.

The saturation of water with oxygen in the air is the basis for the biological process of cleaning household wastewater in sewage treatment plants. The tanks in which aeration takes place are called aeration tanks. They create comfortable conditions for the vital activity of microorganisms and bacteria, namely, the optimal concentration of dissolved oxygen and the drain temperature are maintained.

Due to aeration, when effluents enter, a gradual formation of activated sludge flakes from the substrate occurs. In the future, colonies of aerobic bacteria and microorganisms develop on it, which absorb it, that is, they process both complex fats, urea, and other complex pollutants into simpler ones (for example, ammonium compounds – up to molecular nitrogen gas). But all this is impossible without aeration, without dissolved oxygen. If there is no forced, active air supply in the installation, cleaning will be carried out only due to precipitation and rotting processes, which means the presence of odour, and this is unacceptable in most cases. For the aeration process, and ultimately for effective deep biological wastewater treatment, it is very important to understand that it is oxygen in the supplied air that plays a key role. That is, the compressor blower must be provided with the possibility of fresh air intake from the outside. For this purpose, in all autonomous sewage systems, there are either special

holes in the housing or the so-called "fungus" located on the lid of autonomous sewage stations.

The importance of aeration explains the desire of researchers to study this process as deeply as possible, calculate the optimal design of aerators and select the most suitable materials for these devices.


Currently, mechanical aerators, pneumatic aerators and jet aerators are used on an industrial scale.

Pneumatic aeration system.

Aeration of water is carried out by supplying air under the surface of the water. Depending on the type of aerator used, there are:

- fine bubble aeration with the size of air bubbles 1...4 mm. In this case, ceramic, fabric and plastic aerators are used;
- medium bubble aeration, the size of the bubbles is 5...10 mm. For this purpose, perforated pipes, slit aerators, etc. are used;
- large-bubble aeration with a bubble size of more than 10 mm. Pipes and nozzles open from below are used.

Depending on the pressure created at the outlet, aerators of low (up to 10 kPa), normal (10...50 kPa) and high (over 50 kPa) pressure.



Advantages of aerators Pneumatic aeration type:

- Thorough mixing of the waste liquid;
- Any location;
- Uniform aeration and high oxygen mass transfer due to slit perforation;
- Minimum installation costs;
- High resistance to oil, gasoline and chemicals;
- High energy savings compared to porous aerators, much lower pressure losses;
- Extremely long service life;
- Wide range of operation, optimal with adjustable air supply;
- Temperature range -40°C to 90°C

The porous aerators (filter plates), which are the most common in the practice of wastewater treatment to date, have numerous disadvantages.

The most famous of them are:

- increased clogging of pores with dust, lack of effective methods of plate regeneration;
- insufficient strength of the material of the plates, which leads to their frequent destruction;
- significant unevenness of aeration along the length of the aerotanks, due to the inhomogeneous air permeability of the plates;
- the complexity and complexity of performing repair work to replace the destroyed plates.

Mechanical aeration

Mechanical aerators are quite widespread in the practice of wastewater treatment. There are two main types of mechanical aerators - with the vertical and horizontal axis of rotation.

Aerators with a vertical axis of rotation can be surface and buried in a liquid; according to the type of aeration mechanism, they are divided into turbine, impeller and jet. Aerators with a horizontal axis of rotation are surface (rotary) and agitators.

The mechanism of the water aeration process in the cases under consideration can be divided into the following types:

- the suction of air moving in the liquid by the blade through the surface due to a decrease in pressure behind the blade;
- oxygen saturation of numerous jets and liquid droplets formed by the spraying action of a mechanical aerator and having a large contact surface with air;

- mixing of liquid and air in the inter-blade space of aerators under conditions of sharp pressure drops between the zones of high and low pressure, respectively, in front of and behind the moving blades;
- air suction by liquid jets falling or injected into the liquid mass;
- the dissolution of oxygen through the exchanging layers of the liquid surface during its turbulent mixing.




Mechanical aerators have a number of advantages over pneumatic ones since their installation does not require the construction and operation of blower stations, and air supply communications, they are easy to manufacture and operate and have a high oxidizing ability. Their disadvantages include the need for a large number of aerators to be installed with large structures, the need for scarce equipment (gearboxes, gear motors), as well as insufficiently high reliability of operation.

Jet aeration

The principle of operation of the aerator is based on the ejecting action of the water jet in the narrowing so that the water is saturated with air bubbles.

Studies to improve the technical characteristics of equipment for aerating liquids have led to the emergence of injection static devices that disperse gas with liquid jets created by a pump. Compared with the aerators previously considered, jet machines have the following advantages: a high rate of gas dissolution in liquid and low energy consumption, as well as simplicity of design, ease of operation and reliability of operation. Due to these advantages, jet machines have recently been increasingly used for effective heat and mass transfer in various industries. In particular, they are used in aeration tanks, oxidizing channels and other biological wastewater treatment facilities; in the production of carbonated beverages; medical and microbiological industries



Advantages of aerators (jet) ejector type:

- They are easy to install and do not require regular maintenance, as there are no moving elements.
- The installation of a jet aerator does not require emptying the pool or tank.
- Reduce odours, have a high oxygen efficiency transfer - small bubbles create large contact surfaces between air and water, and high turbulence renews these contact surfaces.
- Economical installation.
- Easy control of oxygen supply, as there is no need for compressed air.
- There is no formation of deposits - an intense jet stream directed to the bottom of the tank prevents the deposition of biomass.
- They work regardless of changes in the water level.
- There is no clogging since the hydraulic ejectors are equipped with an unsaleable impeller (impeller) and a large diameter nozzle to eliminate the possibility of clogging.
- Very low noise level.
- There are no problems with sealing.
- When the unit is inactive, water can enter the air pipeline without negative consequences, and when restarted, the exciting effect of the ejector displaces any liquid from the pipe.

Disadvantages of ejector (jet) aerators: they are used for relatively small treatment facilities since the radius of action of the ejector aerator is small. It is especially effective in small and medium-capacity tanks, or in rectangular pools at wastewater treatment plants.

In conclusion, pretty the use of new materials and modern equipment for air dispersion has made it possible to increase the reliability of well-known aerator designs, but not to fully eliminate their shortcomings.

Aeration systems related to medium-bubble large bubbles have low rates of dissolution of oxygen in the air in the waste liquid. The disadvantage of all pneumatic and airlift aerators is the need to use unreliable, expensive and difficult-to-operate blower equipment. A frequent problem that disables the system of fine-bubbled pneumatic aeration is also the clogging of the pores of the aerators both when the waste fluid enters the aerator when the air supply is turned off, and the ingress of the scale of the air ducts from the inside, leading to siltation and culmination.

The low reliability of mechanical aerators is caused by increased wear of gear motors, strong vibration, and corrosion of the main working elements. Combined neuro mechanical aerators combine the disadvantages of pneumatic and mechanical.

Hydraulic ejector aerators have a limited service area and low aeration efficiency, which leads to high energy consumption for oxygen dissolution and, as a result, can only be used at low-capacity stations.

Literature:

1. Yakubov K.A., Chalk E.S.. Sewage cleaning. - T.: "Innovative development Jade House" 2020.220p.
2. Cleaning and disposal of sewage sludge: per 2 tornado. from English T.A. Garyukhina, I.N. Churbanova, I.X. Zaena. M.: Strayizdat, 1997.236 p.

Tyutor kim?

Sitora Mirpulatova Mirqosimovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Turizm fakulteti tyutori
+998993047504
sitora_mirpulatova@gmail.com

ABSTRACT

Tyutor - bu oliy ta'lim muassasasida faoliyat yuritadigan, tegishli malaka talablarigajavob beradigan, yuksak axloqiy fazllatlarga ega bo'lgan xodim bo'lib, o.ziga biriktirilgan guruh talabalarining ta'lim olishlarida, shuningdek, darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida ko'maklashadi, ularni insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to'garak va klublarga jalb etish, ta'lim olish jarayonida ytzaga keladigan barcha masala va muammoni o'rnatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradi. Tyutor talabalar turar joylarida, ij aradagi va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalarning yashash manzillariga muntazam borib, u yerda yaratilgan sharoitlar va talabalarining muammolarini o'rganib borish va ulami yaxshilash choralarini ko'rish faoliyati bilan shug'ullanadi. Tyutor o'z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, oliy ta'lim muassasasi ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda ushbu nizomga rioya etadi. Ushbu maqolada tyutorlik lavozimiga urg'u berilgan.

Key words: tyutor, maslahatchi, tadbirkor, tashabbuskor, instruktor, huquqiy majburiyatlar.

INTRODUCTION

Vazirlar Mahkamasining "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, 2021-yil 1-sentabrdan boshlab:

- talabalar bilan ishlash bo'yicha "guruh murabbiyi" instituti bekor qilinadi;
- 1-3-kurs talabalarining muammolarini bartaraf etishda yaqindan yordam ko'rsatuvchi tyutorlarni biriktirish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;
- har 120-150 nafar talabaga 1nta shtat birligi hisobida tyutor lavozimi kiritiladi hamda uning oylik maoshi "O'qituvchi-stajor" bazaviy lavozim maoshiga tenglashtiriladi;

• Tyutorlar talabalarning ma'naviy va ijtimoiy holatini doimiy ravishda tahlil qilib boradi va ularga mavjud muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam beradi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi tuzilmasida. Tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo'limi tashkil etiladi.

Ushbu qaror bilan uzoq vaqtdan beri kutilgan bir qator tizimli yangilik va o'zgarishlar kiritildi. Ular qatorida 2021 yil 1 sentabrdan boshlab talabalar bilan ishlash bo'yicha "guruh murabbiyi" instituti bekor qilinib, uning o'rniga talabalar bilan ishlaydigan "tyutorlar" amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Kundalik ta'lim leksikonimizga "tyutor" tushunchasi kirib kelar ekan, uning mazmuni nimadan iborat?

Avvalambor, "tyutor" ("tutor") tom ma'noda ustoz, murabbiy, instruktor – yo'l ko'rsatuvchi ma'nolarida qo'llaniladi. Tyutor birinchi navbatda, ma'lum bir sohaning mutaxassisi bo'lib, uning asosiy vazifasi talabaga muayyan bilim va ko'nikmalar berishdan iborat.

Kengroq ma'noda esa, tyutor talabaga o'quv jarayoni davomida o'z salohiyatini namoyon qilish, o'zini yanada yaxshiroq anglash, o'qish va hayotda to'g'ri qaror qabul qilish va tanlashni o'rgatadi. U talabaga har bir qadam va harakatlarining oqibatlarini anglash, hayotda o'z qiziqishlarini topishga yordam beradi.

Buning uchun tyutor o'z tarbiyachilarining qiziqish va moyilliklarini, muammo va qiyinchiliklarini chuqur tahlil qiladi. U talabaning atrofidagi intellektual va psixologik muhitni sinchkovlik bilan o'rganadi. Bir so'z bilan aytganda, tyutor talaba va ta'lim jarayoni o'rtasidagi bog'lovchi kuch hisoblanadi. Uning yordamida o'qish qiziqarli va samarali jarayonga aylanishi lozim.

Tyutorlik usuli qadimgi Yunonistonda ham asosiy ta'lim jarayoniga yordam sifatida yo'lga qo'yilgan edi. Hozirda dunyoning ko'plab mamlakatlarida tyutorlik uchun maxsus o'qitiladi, diplom beriladi. Masalan, Rossiyada pedagogika sohasiga ixtisoslashtirilgan oliygohlarda bakalavr va magistratura bo'yicha maxsus tyutorlik kurslari bor. Tyutorlik markazlari va assotsiatsiyalar faoliyat yuritadi.

Bu ko'hna usul zamonaviy dunyoda turli shakllarda (formal va noformal, o'quv xonasida yoki masofaviy tarzda) qo'llaniladi. Tyutorlik, albatta, formal o'quv jarayonidan farq qiladi. U yengilroq, moslashuvchan shaklda amalga oshiriladi.

Tyutorlar – bu yuksak mas'uliyat egalari hisoblanadi. Zero, tyutor dunyoqarashi endi shakllanayotgan talaba bilan muntazam tarzda ishlaydi. Bunday mutaxassisning asosiy vazifasi – boshqa odamga o'qishni samarali va qiziqarli jarayonga aylantirishga

yordam berish. Tyutor ham butun guruh bilan, ham individual tarzda ishlashi kerak bo'ladi.

Ilmning qaysi sohalariga urg'u berish, kelajakda kasb tanlash, kerak bo'lsa, boshqa mutaxassislikka mo'ljal olish, o'qish va kundalik hayot o'rtasida muvozanatni o'rnatish, vaqtini menejment qilish masalalarida talabalarga ta'sir qilish ham tyutorning vazifasidir.

Yaxshi tyutor – bu talabaga yelkadosh murabbiy va mohir konsultantdir. U talabaning kuchli taraflarini, zaxiradagi qobiliyatlarini yuzaga chiqarib, kamchiliklari ustida ishlashni o'rgatadi. (S.Usmanov, *Axborot xizmati rahbari*)

I. Umumiy qoidalar

2. Ushbu Nizom davlat oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilan ishlashning yangi tizimi - tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi, tyutorlikning maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

3.. 4. Quyidagi holatlarda tyutorlik faoliyatini amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi: ta'lim muassasasi tomonidan tyutor etib belgilanmagan shaxslar tomonidan tyutorlik faoliyatini amalga oshirish; belgilangan me'yor va talablarga javob bermaydigan, bilim va tafakkur doirasi tyutorlik kasbiga munosib bo'lmagan mutaxassislarni tyutorlik lavozimiga tayinlash; 5. Ta'lim muassasalarida tyutorlar faoliyatiga umumiy rahbarlikni Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor (o'rinbosar) amalga oshiradi.

II bob.

Tyutorlik faoliyatining maqsad va vazifalari. Quyidagilar: tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadlari hisoblanadi: ta'lim va tarbiya jarayoni uyg'unligini samarali tashkil etish; ta'lim muassasasi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish; talabalarga ijtimoiy-ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatgan holda o'zini yanada yaxshiroq anglash, o'qish va hayotda to'g'ri qaror qabul qilish, tanlagan kasbiga muhabbatni oshirish; ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, o'quvchilar davomatini yaxshilash bilan bog'liq masalalarda Jamoat kengashi va mahallaning o'zini kuchaytirish. talabalarning dars mashg'ulotlarini o'zlashtirib borishini tahlil qilish va darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarini ta'minlash; ularning ijtimoiy (oilaviy) holatidan doimiy xabardor bo'lishdan iborat' 7. Quyidagilar tyutorlik faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi: a) ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-tarbiya sohasida: muntazam ravishda talabalarning ota-onasi bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish hamda ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'zini, majburiyati, mas'uliyati va farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko'maklashish, ularning ta'lim tizimidagi islohotlar haqida ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlash; ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rnatish va ularni yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish; qonunchilik talabalaridan

kelib chiqib ta'lim muassasasiga yaqin hududlarda alkogolli va tamaki mahsulotlari sotilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'lim muassasasi rahbariyatiga takliflar kiritish; oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligini yanada kuchaytirishga doir uslubiy asoslarni yaratish; „Birinci kurs maktabi“ tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etishda faol ishtirok etish; ta'lim muassasasining odob-axloq qoidalari, komrpsiyaga qarshi kurashish Dasturi (siyosati), ta'lim muassasasining ichki mehnat tartibi qoidalari hamda boshqa lokal hujjatlar bilan o'ziga birlashtirilgan talabalarni tanishtirish; psixolog bilan birgalikda talabalarning ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish; talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar va milliy qonunchiligimizga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash; talabalarni boy tarixiy, milliy va diniy an'analarimizga yot bo'lgan illatlar, ya'ni terrorizm, separatizm, prozelitizm, diniy aqidaparastlik, missionerlik, „ommaviy madaniyat“, narkomaniya, uyushgan jinoyatchilik va boshqa illatlarga murosasizlik hamda ularga qarshi kurash ruhida tarbiyalash; talabalarning qonuniy manfaatini himoya qilish, yaratilayotgan sharoitlardan foydalanish imkoniyatini yetkazish, ularning muammolarini bartaraf etishda bayonnomalarni shakllantirib, amaliy yordam ko'rsatish hamda o'qishi, ilm-fan bilan shug'ullanishi, yashashi va dam olishi uchun tegishli choralar ko'rib borish; talabalarni darsdan bo'sh vaqtlarda besh muhim tashabbus doirasidagi klub, to'garak va tanlovlarga jalb qilish, ularning ta'lim muassasasi hayotidagi ijtimoiysiyosiy va madaniy tadbirlardagi ishtirokini ta'minlash; nogironligi bo'lgan, yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va kam ta'minlangan talabalarga alohida g'amxo'rlik qilish, ularga tegishli tartibda ijtimoiy, ma'naviy va psixologik yordam berish choralarini ko'rish; iste'dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni respublika va xalqaro tanlovlarga maqsadli tayyorlash, iqtidorli talabalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomdor davlat stipendiyalariga tavsiya etish; o'zlashtirish ko'rsatgichi past hamda tarbiyasi og'ir talabalar bilan tizimli ishlarni olib borish; shuningdek, talabalar turar joylarida, ijara va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalarning yashash manzillariga muntazam borib u yerda yaratilgan sharoitlarni o'rganib borish va ularni yaxshilash bo'yicha mutasaddilarga taklif kiritish; talaba tomonidan odob-axloq qoidalari va boshqa qoidalar buzilganda unga nisbatan chora ko'rish to'g'risida ta'lim muassasasi va fakultet rahbariyatiga taklif kiritish; ta'lim muassasasi, shahar va respublika doirasida tashkil etiladigan tadbirlarga talabalarni tartib va intizom, uyushqoqlik bilan olib kelish va ishtiroklarini ta'minlash; talabaning axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarini va u haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni yorituvchi yig'ma jild hamda "Axborot va murabbiylik soati" darsiva ish rejasidagi turli xil tadbirlarni qayd qilish jurnalini elektron tutish va yuritib borish. b) O'quv va o'quv-uslubiy sohada: talabalarning darslarga qatnashishlari bo'yicha kunlik davomatini yuritib borish, ular tomonidan sababsiz qoldirilgan dars mashg'ulotlari yuzasidan tegishli choralar ko'rish bo'yicha fakultet dekanatiga bildiri kiritib borish; talabalarning darslarni o'zlashtirish darajalarini nazorat qilib borish,

innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta'minlashga hamda ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishga ko'maklashish; talaba haqida fakultet dekanatiga tushayotgan ma'lumot asosida guruh sardori bilan birgalikda professor-o'qituvchilar bilan suhbatlashish, o'zlashtirishi past talabaga yordamlashib, o'zlashtirish ko'rsatkichi 1'uqori bo'lgan talabani unga biriktirish, qo'shimcha darslar va maslahatlar tashkil etish, fanlar bo'yicha akademik qarzdorliklarni belgilangan muddatda topshirishini nazorat qilish. v) Ilm-fan, innovatsiya va tadqiqotlar sohasida: iste'dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ulami maqsadli tayyorlash hamda ilmiy to'garaklar, innovatsion startaplarga va klublarga jalb etish; talabalarni turli ilmiy tadbirlar: konferensiyalar, seminarlar, respublika va xalqaro miqyosdagi olimpiadalar va forumlarda ishtirok etishlarini uyushtirish; talabalarning xalqaro grantlar va loyihalarda qatnashishlariga ko'mak berish va rag'batlantirish, ilm-fan hamda tadqiqotlarda faol ishtirok etayotgan talabalarni ta'lim muassasasi rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan rag'batlantirilishini tashkil etish; talabalarga ilmiy maqolalar yozishda maslahatlar berish va chop etishda yordam ko'rsatish, ulami kelgusida ilmiy faoliyat olib borishlariga yaqindan yordam berish. 8. Tyutorlar quyidagi huquqlarga ega: o.ziga biriktirilgan talabalarning darslarini, talaba davomati va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish; TTJga joylashishlari uchun talabalarga e'lon berish va ular tomonidan tegishli hujjatlarni yig'ib taqdim etish hamda tashkil etiladigan komissiya yig'ilishida talabalarning ishtirokini ta'minlash; talabaning talabalar turar joyidan chiqarilishiga rozilik berish, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish; o'quv-tarbiyaviy sohalardagi muammolarini bartaraf etish bo'yicha fakultet dekanati bilan hamkorlikda ishlash;

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar va sport musobaqalarini o'tkazishda dekanat, rektorat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish; talabaga tavsifiroma va akademik ta'vil berish masalasini hal etishda ishtirok etish, talaba haqidagi fakultetda mavjud ma'lumotlardan to'la foydalanish; talabaning darslariga qatnashishi, o'zlashtirish va ijtimoiy hayotidagi rolga oid takliflarni fakultet dekanatiga kiritish, talabaning rag'batlantirilishi yoki jazolanishi va maxsus stipendiyalarga loyiqqligi bo'yicha xulosa berish; Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Kasaba uyushmasi va Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bilan birgalikdotalaba bilimini odilona baholashni nazorat qilish; Tyutor qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. 9. Tyutorlar quyidagi majburiyatlarni bajaradilar: talabalarning ma'naviy, axloqiy va kasbiy tarbiyasi bilan muntazam shug'ullanish; o'z mahorati, kasbiy tayyorgarligi, nazariy bilim va ish tajribasini doimiy ravishda oshirib borish; talabalarning sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish; ta'lim muassasasida professor-o'qituvchilar tomonidan talabaning obro'e'tibori va nufuziga dog' tushirishning oldini olish; talabalarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy

salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratish; tyutorlik guruhlaridagi talabalarning ma'lumotlar bazasini yaratish va fakultetga taqdim etish; talabalar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni ularning roziligisiz oshkor qilmaslik; tyutorlik guruhidagi talabalar turar joyi, liaru, yaqin qarindoshi va o'z uyida istiqomat qiluvchi talabalarning yashash sharoitidan doimiy xabardor bo'lish; talabalarning to'garak va klublarga a'zolicini maksimal darajada ta'minlash va ularning ushbu to'garaklar faoliyatidagi ishtiroki monitoringini yuritish; o'ziga birlashtirilgan akademik guruhlardagi talabalar bilan muntazam (guruhlarda va yakka tartibda) suhbatlar o'tkazib borish; talabalar va ularning ota-onasini yoki boshqa qonuniy vakillarini oliy ta'lim muassasasi ustavi, ichki tartib, odob-axloq hamda TTJdan foydalanish qoidalari va ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar bilan tanishtirishi;

Akademik guruhlarda dars jadvali asosida har haftada bir marta "Axborot va murabbiylik soati", "Soft skills" treninglari o'tilishini tashkil etish hamda uning samaradorligini ta'minlash ; talabalar bilan bog'liq favqulodda muammoli vaziyatlar yuzasidan zudlik bilan fakultet dekaniga axborot berish; talabalar o'rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilik va diniy ekstremizmning oldini olish bo'yicha soha mutaxassislari ishtirokida muntazam tushuntirish ishlarini olib borish; alkogol, tamaki va psixotrop vositalar iste'mol qilishning zararli oqibatlari xususida doimiy profilaktik ishlarni tashkil etish; moddiy yordamga muhtoj talabalarni aniqlash, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha fakultet dekaniga taklif kiritish' Tyutor o'z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, oliy ta'lim muassasasi ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda ushbu nizomga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajaradi.

IV bob. Tyutorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish 10. Tyutorlik faoliyati bu ta'lim muassasasi pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatidagi muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 11. Ta'lim muassasasida tyutorlar faoliyati belgilangan shtat ajratilgan holda individual mehnat shartnomasini tuzish orqali amalga oshiriladi. 12. Tyutorlar faoliyati xodimlarning asosiy mehnat faoliyati bo'lib, bunda tyutorlik uchun bazaviy oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat talab etiladi. Tyutorlik faoliyatiga jalb qilingan xodimlarga oylik maoshi stajor o'qituvchi ish haqi me'yorlari doirasida belgilanishi mumkin. 13. Tyutorlarga talabalar birlashtirilganda ularning soni qoida tariqasida 120-150 nafar atrofida bo'ladi. 14. Tyutorlar faoliyati tegishlilik bo'yicha fakultet dekanlari tomonidan muvofiq qilashtirilib bori ladi. 15. Tyutorlar o'z faoliyatida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor oldida hisobdordirlar. 16. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan tyutorlar faoliyatiga oid hisobotlar har chorakda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markaziga elektron taqdim etib boriladi. 17. Tyutorlar o'ziga birlashtirilgan akademik guruhlarda talabalar bilan samarali ish olib borishiga qarab oliy

ta'lim muassasalarining budj etdan tashqari mablag'lari hisobidan qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirib borilishi mumkin.

V bob. Tyutorlarga qo'yiladigan talablar va ularni lavozimiga tayinlash 18. a) Tyutorlar oliy ma'lumotga ega bo'lishi (ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega shaxs larga afzalliklar beriladi); b) 25 yoshdan kichik, 55 yoshdan (ayollar uchun 50 yosh) katta bo'lmasligi; v) pedagogik va psixologik, o'quv-tarbiyaviy, o'quv-uslubiy, ta'lim tizimida boshqaruv faoliyati bilan shug'ullangan, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda 2 yildan kam bo'lmagan (2 yildan ko'p bo'lganlarga ustuvorlik beriladi) mehnat stajiga ega bo'lishi; g) qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta'lim berish huquqidan mahrum etilmagan bo'lishi; d) namunaviy shaxsiy fazilatlariga - intellekt, madaniyatli, ijodiy, xushmuomalalik, vatanparvarlik va tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo'lishi, mas'uliyat hissi, mustaqil ish tutish xususiyatlariga ega bo'lishi zarur. Tyutorlikka nomzodlar Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektorlar tomonidan tajribali, talabalar orasida katta hurmat va e'tibor qozongan, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar uslubiyati va amaliyotini chuqur anglab yetgan, pedagogik va psixologik bilim va tayibaga ega bo'lgan professoro'qituvchi va boshqa xodimlar orasidan tanlanib, oliy ta'lim muassasasiga ishga qabul qilish bo'yicha komissiyasiga taqdim etiladi. 19. Ishga qabul qilish komissiya xulosasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

VI bob. Tyutorlar ishini tashkil etish 20. Tyutorlar o'quv yili uchun tasdiqlangan ish rejasi (mutasaddi idora va tashkilotlar bilan tuzilgan hamkorlik rejalari) asosida ma'naviy-axloqiy tarbiya va boshqa turdagi ishlarini olib boradilar. Reja bo'yicha ishlar elektron shakldagi tyutorlik jurnalida qayd etib boriladi. 21. Tyutorlar olib borilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya va boshqa turdagi ishlari natijalari bo'yicha ma'lumotlarni fakultet dekanining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosariga har oyda va o'quv semestri yakunida esa yakuniy hisobot shaklida berib boradilar.

Foydalanilgan manbalar:

1. <https://daryo.uz/2021/09/11/ozbekiston-otmlarida-guruh-murabbiyi-instituti-bekor-qilinadi/>
2. <https://abt.uz/blog/yuksak-masuliyat-egalari-tyutorlar-haqida>
3. <https://stict.uz/wp-content/uploads/2021/10/Tyutor-lavozimi-Nizomi-va-Jurnali.pdf>

O`ZBEKISTONDA MHXS GA O`TISH NATIJASIDA ERISHILADIGAN
AMALIY AFZALLIKLAR

Ilmiy rahbar: iqt. fan. dok prof. Hamdamov B. K

TMI magistranti: Xazratqulov O. S

Annotatsiya: Maqolada moliyaviy hisobotni takomillashtirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish va uni joriy etish barcha mamlakatlar uchun dolzarb masala bo'lib turayotganligi, jahondagi ko'plab mamlakatlarda moliyaviy hisobot kompilyatsiyasi natijasida MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzishga o'tilayotganligi va mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirilgan hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishga karatilgan taklif va tavsiyalar ishlab chikilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobining milliy standarti, moliyaviy hisobotning xalqaro standarti, kompilyatsiya, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar, buxgalterlar federatsiyasi.

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan kelibchiqib mamlakat iqtisodiyotiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash orqali investitsion muhitni yaxshilanishiga imkon yaratiladi. Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi (IFAC) direktivasida ta'kidlanganidek: "Moliyaviy hisobot makro va mikro darajada davlat siyosatini yoritadi hamda uzoq muddat davomida davlat xizmatlari va iqtisodiyotni barqaror holga keltirishga yordam beradi" [3]. Bugungi kunda moliyaviy hisobotni takomillashtirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish va uni joriy etish barcha mamlakatlar uchun dolzarb masala bo'lib turibdi. Jahondagi ko'plab mamlakatlarda moliyaviy hisobot kompilyatsiyasi natijasida MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzishga o'tilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish yo'llarining ayrim masalalari, nazariy va uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar A.Arens, R.Adams [3], M.Benis, R.Dodj, D.R.Karmaykl, Dj.Robertson va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimiz olimlari tomonidan moliyaviy hisobotni takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlar ilmiy maqolalar R.D.Dusmuratov [13], A.K.Ibragimov, I.N.Ismanov, B.A.Xasanov vaboshqalarning izlanishlarida ko'rishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari- shu nom bilan ataluvchi Qo'mita tarkibiga kiruvchi davlatlarga qo'llash uchun tavsiya qilingan qoidalar majmuasidir.

Bu xalqaro standartning dunyoga kelishi moliyaviy hisobotning halqaro standartlari Qo'mitasi (MHXSQ) faoliyati bilan bevosita bog'liq. Bu xalqaro tashkilot qator yetakchi davlatlar (Avstraliya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Meksika, Gollandiya, AQSh, Buyuk Britaniya va Irlandiya) buxgalterlarning professional birlashmalari tomonidan o'zarokelishuv orqali tuzilgan.

Qo'mitaning funksiyasiga quyidagi maqsadlar kiradi [2]:

- jamoatchilikning manfaatlarini inobatga olib, moliyaviy hisobot standartlarini shakillantirish va nashr etish, hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish qoidalarini ta'minlash, ommaviy qo'llanilishi va ularga rioya qilinishini rag'batlantirish;

- moliyaviy hisobotlarni taqdim etish bilan bog'liq me'yorlar, hisob standartlari va tartiblarini takomillashtirish va muvofiqlashtirish bo'yicha ish yuritish.

Milliy hisobotni xalqaro hisobot standartlari bo'yicha qayta tuzish, xalqaro tajribada ikki yo'l bilan amalga oshiriladi, ya'ni moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish va konversiya usullari.

Transformatsiya usuli oldingi hisobot davri ko'rsatkichlarini xalqaro standartlarga moslab qayta tuzatishni nazarda tutadi. Buning uchun kompaniya xo'jalik muomalalari va hodisalarini hisobda dastlab milliy standartlar bo'yicha aks ettiradi, undan so'ng moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tuzatib, xalqaro standartlariga moslab o'zgartiradi.

Xalqaro standartlarga o'tish paytida yuzaga kelgan farqlarni taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) tarkibida hisobga olish halqaro amaliyotda qabul qilingan. Bu farqlardaromad va xarajatlarni milliy va xalqaro standartlarda tan olish mezonlari bilan xarakterlanadi. Masalan, milliy standartlarmiz bo'yicha daromad xajmi yuklab jo'natilgan mahsulot (ish, xizmat)larning hajmi bilan aniqlanadi, xalqaro standartlar bo'yicha esa sotishdan tushgan tushumlar hajmi bilan.

Moliyaviy hisobotning bir tizimidan ikkinchi bir tizimiga o'tishda, tuzatuvchi yozuvlar ta'sirida nafaqat buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot moddalari, shuningdek, pul oqimlari va xususiy kapital to'g'risidagi hisobotlarning tegishli moddalarida o'zgarishlar yuzaga keladi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur [6]:

- zahiralarni qayta baholash. Agarda kompaniya hisob siyosatida qo'llanilgan ishlab chiqarishdagi zahiralarni baholash usuli xalqaro standartlarda ko'zda tutilgan usullardan farqlansa, bunda milliy hisob tizimimizda lifo usulining

qo'llanilishi bekor qilinganligi nazarda tutiladi;

- asosiy vositalarni inventar sanoqdan o'tkazish, bunda ularning ma'naviy va jismoniy eskirishi tufayli qiymatidagi baholashdan yo'qotishlar aniqlanadi;
- uzoq muddatli moliyaviy ijaraga berilgan aktivlar bo'yicha kechiktirilgandaromadlar hisobining to'g'riligini tekshirish;
- aktivlar va majburiyatlarni uzoq va qisqa muddatliga ajratish va boshqa tuzatishlar.

XULOSA VA MUNOZARA

Moliyaviy hisobotlarni MHXSGa muvofiqlashtirishda moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish jarayoni muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish bu buxgalteriya hisobiga oid me'yoriy hujjatlari asosida shakllantirilgan hisob ishlarini xalqaro standartlar talablari asosida qayta guruhlashtirish va hisobot shakllariga tegishli tuzatishlarni kiritish jarayoni hisoblanadi.

Kelgusida moliyaviy hisobotlarni MHXSGa muvofiqlashtirishda, ulardagi hisobotlarni transformatsiya qilish ishlarini milliy buxgalteriya hisobi bo'yicha buxgalterxodimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'lareni. Transformatsiya quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 15-son, 142- modda.
2. Arens A., Lobbek J. Audit. - M.: Moliya va statistika, 2013, 560-yillar.
3. Adams R. Audit asoslari. - M.: UNITI, 2015. 398s.
4. Benis M. Audit standartlari va normalari. Per. ingliz tilidan. -M.: Audit. UNITI, 2015. 527s.
5. Dodge R. Audit standartlari va normalari bo'yicha qisqacha qo'llanma. Per. ingliz tilidan: so'zboshi S.A. Stukov.- M.: Moliya va statistika, UNITI, 2012. 240p.
6. Carmichael D., Kevorkova J.A. Xalqaro audit standartlari .. - M.: Yurayt, 2014 458s.

QULUPNAY O'SIMLIGI ZARAKUNANDALARI O'RGANISH TARIXI

Boltaboyeva Qanoatxon Umirdinovna

Annotatsiya: Bugungi kunda dunyo miqyosida rezavor mevalar yetishtirish hajmi 7-8 mln tonna bo'lib, shundan 4 mln tonnaga yaqini qulupnay tashkil qiladi. Qulupnay (*Fragaria spp*) yetishtirish bo'yicha jahonda AQSH yetakchilik qilib, 825 ming tonna hosil olinadi. Ispaniya 305 ming tonna, Yaponiya 209 ming tonna, Janubiy Korea 203 ming tonna qulupnay yetishtiradi. Yevropada esa Polsha va Fransiya yetakchilik qilib, ular har yili 180-100 ming tonna mahsulot oladi. Ayrim mamlakatlarda qulupnay yetishtirish hajmining bugungi kun talabiga mos kelmasligi bu serhosil, turli muddatlarda pishadigan rempntant, istiqbolli navlarning kamligi hisoblanadi.¹

Kalit so'zlar: qulupnay, rezavor, polsha, zararkunanda

KIRISH

AQSH (Kaliforniya), Polsha, Yaponiya, Fransiya mamlakatlarida qulupnay o'stirishning maqsadli yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirishga, ishlab chiqarishda serhosil, biokimyoviy tarkibi yaxshi, mevaning Tovar xususiyati yuqori, universal, iste'mol qilishga va qayta ishlashga yaroqli, past haroratga, kasalliklarga chidamli, ochiq va himoyalangan maydonlarda o'sish xususiyatiga ega navlar ustida izlanishlar olib borilmoqda.²

O'zbekistonda qulupnay yetishtirish hajmining pastligi sabab navlar assortimentida yuqori hosildor, issiqqa chidamli, intensiv, rivojlanish jarayoni qisqa, mevalarning yuqori tovarlilik va universal qayta ishlash xususiyatlarga ega navlar va gibridlarning yo'qligidir. O'simlik assortimentini shunday navlar bilan boyitish, ularning o'stirish texnologiyasini takomillashtirish respublikamiz qishloq ho'jaligi sohasida dolzarb masala hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining 3-ustuvor yo'nalishida belgilangan "...yuqori mahsulдорlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy tuproq- iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq ho'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini yaratish va ishlab chiqishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish" vazifasi bilan qishloq ho'jaligini, ayniqsa, mevalilik va uzumchilikni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Ichki bozorni o'zimizda yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, meva-rezavor mevalarning

¹ Kimsanboyev X.X., Sulaymonov B.A., Anarbayev A.R., "Biotsenozda o'simliklar navlari va gibridlarning zarkunandalari parazit entomofaglarini rivojlanishi". "O'zbekiston" NMIU, -2016

² Olimjonov R.A., Entomologiya. "O'qituvchi", -Toshkent. 1977

serhosil navalrini joriy etish, past rentabelli paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga oshirish masalasi qo'yilgan.³

Respublikamizdagi mevali va rezavor o'simliklar ichida qulupnay, qoraqat va malina yuqori hosil berishi, shuningdek, mevasi o'ta mazaliligi, dorivorligi bilan ajralib turadi. Bu o'simliklar juda erta uyg'onishi bois, erta bahordanoq ularning qator oralari yumshatilib, mineral o'g'itlar hamda organiklar bilan oziqlantiriladi. Qulupnay hosildorligi tuproqni ko'klamgi yumshatish vaqtiga bog'liq bo'lib, tuproq qanchalik erta yumshatilsa, hosil ham yuqori bo'ladi. Qulupnay juda nozik va zararkunandalarga moyil ekin hisoblanadi. Hatto o'simliklarni kasallik va hashorotlardan o'z vaqtida parvarish qilish va davolash ham mo'l hosil olishingizga to'liq kafolat bermaydi. Bu ekin zararkunandalari qatoriga eng avval hammaxo'r hashorotlardan ildiz kemiruvchi tunlamlar, quyruqli buzoq boshi, gamma tunlami, ildiz shiralari, shuningdek, shilliq qurti kiritish mumkin. Ammo bu reza meva o'simligining o'ziga moslashgan zarrakunandalari ham bor. Bularga qulupnay bargxo'ri va qulupnay uzunburuni misol bo'ladi.⁴

Xulosa. Hashorotlarga qarshi kurashish uchun urug' ekish davridan toki hosil yig'ib olingungacha bo'lgandavrda turlicha kurashish usullaridan rejali ravishda foydalaniladi. O'simliklarni himoya qilish chora –tadbirlari zararli organizmlarning biologiyasini puxta o'rganish va ular sonining belgilangan iqtisodiy xavfli chegarasini hisobga olib amalga oshirish lozim. Agrobiotsenozda fitofag va entomofaglar o'zaro muvozanatini tiklash, foydali turlarini o'rganish, qo'llash qo'llamaning asosiy maqsadlaridan biridir.⁵

O'simliklarni zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan biologik himoya qilish ekinlar hosildorligini oshirish, ekologik toza mahsulot yetishtirish, bioxilma-xillikni saqlash dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-son "2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.-2017.-№6.70 modda

³ Сухорученко Г.И., Смирнова А., Митрофанов В.Б. и др. Рекомендации по рациональному чередованию инсектицидов, акарицидов и биопрепаратов в борьбе регистрными популяциями вредителей хлопчатника. ВИЗР.-Л., 1985 ю-С.34.

⁴ Kimsanboyev X.X., Sulaymonov B.A., Anarbayev A.R., "Biotseozda o'simliklar navlari va gibridlarning zarkunandalari parazit entomofaglarini rivojlanishi". "O'zbekiston" NMIU, -2016

⁵ M. Raxmonova-Andijon qishloq ho'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "O'simliklar va qishloq ho'jalik mahsulotlari"

